

KURSIV

RESEARCH

№ 1 (6)




Код безопасности:

как цифровая маркировка
меняет бизнес и потребительскую
культуру в Узбекистане

Xavfsizlik kodi:

raqamli markirovka O'zbekistonda
biznes va iste'mol madaniyatiga
qanday ta'sir ko'rsatmoqda



Fotografi: Bagdaultet Patlik

Anastasiya NOVIKOVA,

Kursiv Media bosh direktori



ISTE'MOL MADANIYATINI RAQAMLASHTIRISH

«Vitamin sotaman, 100 foiz original» — shunday e'lonlarga duch kelganmisiz? Shu tarzda ishlaydigan sotuvchilardan mahsulot xarid qilib ko'rganmisiz? Tovarning haqiqiyligini qanday tekshirgansiz, quruq gapga ishonib, pand yegan paytlaringiz bo'lganmi? Aslida tovarning asl manbasini aniqlash unchalik qiyin emas. Buning uchun shunchaki markirovka nima ekanligini bilishning o'zi kifoya.

Raqamli markirovka — O'zbekiston uchun yangilik emas. Uni joriy etish bundan bir necha yil oldin boshlangan. Dastlab ko'pchilikka tushunarsiz tuyulgan bu jarayon bugungi kunga kelib mamlakat biznesi va iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. Hozirda markirovka — bu shunchaki gazli ichimlik shishasining qopqog'idagi Data Matrix kodi emas, balki eng avvalo mahsulot xavfsizligi va xaridorning ongli tanlovi uchun muhim vositadir.

Mazkur davr ichida O'zbekistonda oltita tovar guruhini raqamli markirovkalash yo'lga qo'yildi va ularning soni yil sayin ortib bormoqda. Joriy yilda alkogol, pivo, tamaki, maishiy texnika, ichimliklar va dori vositalariga biologik faol qo'shimchalar (BFQ) ham qo'shildi. Hozircha bu sinov tarzida amalga oshirilmoqda, biroq yaqin kelajakda ushbu talab biznes uchun majburiy normaga aylanishi kutilmoqda. Ha, bu jarayon oson emas, qo'shimcha moliyaviy va resurs xarajatlarini talab qiladi. Ammo bu ishda eng muhimi — erishiladigan natija. Markirovkalashning asosiy maqsadi esa iqtisodiyotning xavfsizligi va shaffofligini ta'minlashdir.

Afsuski, uzoq yillar davomida O'zbekistondagi do'kon va dorixona rastalarida kontrafakt mahsulotlar haddan tashqari ko'p bo'lgani uchun soxta mahsulotlar hayotimizning odatiy qismiga aylanib qoldi. Bu esa bir necha yil ichida o'zgartirish juda qiyin bo'lgan holatga aylandi.

Lekin ish allaqachon boshlangan va eng muhimi yuqorida yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish va biznesga bosimni minimallashtirish vazifasini qo'ydi. Va bunda markirovkalash muhim ahamiyat kasb etadi. Regulyator, markirovka operatori va biznesning doimiy hamkorligi nafaqat nazoratni ta'minlash, balki bozorning ochiqligini, ishlab chiqarish jarayonini, shuningdek, tadbirkorlar va umuman iqtisodiy faol aholining xabardorligini ta'minlovchi mexanizmni yaratdi.

Bugun shunday manzara shakllanmoqda: davlat bozorni shaffoflantirish maqsadini qo'yan, biznes esa bu qoidalarni qabul qilib, yangi sharoitlarda ishlashga tayyor. Markirovkalash jarayoni o'z yo'lini davom ettirmoqda va tovarlarning yangi guruhlari muomalaga kiritilmoqda. Ehtimol, keyinchalik bu jarayonning eng murakkab bosqichi — o'zbek jamiyatida iste'mol madaniyatini shakllantirish va tarbiyalash boshlanadi.

Kursiv Research jurnalining ushbu soni hamda uz.kursiv.media saytida e'lon qilingan «Xavfsizlik kodi. O'zbekistondagi raqamli markirovka haqida barcha ma'lumotlar» maxsus loyihasi fuqarolarning xabardorligini oshirish va yangi iste'molchilik madaniyatini shakllantirish yo'lida O'zbekistondagi markirovka operatori **CRPT TURON** bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan navbatdagi qadamlardan biridir.


MUTOLAANGIZ
MAROQLI BO'LSIN!

MARKIROVKANI JORIY ETISHNING SAMARASI:

Data Matrix O‘zbekiston bozorini
qanchalik o‘zgartirmoqda

KRISTINA TETERINA

2025-YIL 1-MAYDAN BOSHLAB O‘ZBEKISTONDA AGROKIMYO VOSITALINI RAQAMLI MARKIROVKALASH BO‘YICHA TAJRIBA LOYIHASI BOSHLANADI. USHBU PILOT LOYIHA 31-OKTABRGACHA DAVOM ETADI. AVVALROQ JORIY YILNING MART OYIDA BIOLOGIK FAOL QO’SHIMCHALARNI (BFQ) IXTIYORIY ASOSDA MARKIROVKALASH ISHLARI SINOV TARZIDA YO’LGA QO’YILGAN. O‘ZBEKISTONDA 2021-YILDA BOSHLANGAN RAQAMLI MARKIROVKALASH TIZIMI BUGUNGI KUNGA KELIB, OLTITA ASOSIY TOVAR GURUHINI QAMRAB OLGAN. Ular QUYIDAGILARDAN IBORAT: ALKOGOL MAHSULOTLARI, TAMAKI MAHSULOTLARI, PIVO VA PIVO MAHSULOTLARI, MAISHIY TEXNIKA, DORI VOSITALARI VA TIBBIY BUYUMLAR, SHUNINGDEK, ICHIMLIK SUVI VA SALQIN ICHIMLIKLER. MAZKUR DAVRDA TIZIM ORQALI QANDAY NATIJALARGA ERISHILGANI, UNGA QANCHА ISHTIROKCHI QO’SHILGANI VA MARKIROVKA BOZOR SHAFFOFLIGINI OSHIRISHGA QANDAY TA’SIR KO’RSATGANI YUZASIDAN KURSIV UZBEKISTAN JURNALISTLARI TOMONIDAN O’GANISHLAR OLIB BORILDИ.



TOVAR MARKIROVKASI NIMA VA UNDAN QANDAY FOYDA BOR?

Markirovka — bu tovarning individual kodibolib, u tashqi qadoqqa tushiriladi. Noyob kodda mahsulot haqidagi ma'lumotlar saqlanadi. Markirovka kodlarining o'zi esa integratorlar va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar tomonidan chop etiladi.

Asl Belgisi — O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan raqamli markirovka tizimi. Uning operatori «CRPT TURON» MCHJ bo'lib, u ushbu axborot tizimini ishlab chiqish, ishlatalish va yanada takomilashtirish uchun javobgar.

Raqamli markirovka tizimining asosiy vazifalari istemolchilar xavfsizligini oshirish, soxta mahsulotlar sonini kamaytirish va bozordagi qalbaki mahsulotlardan xalos qilishdir. Tovarlarni markirovkalash davlat, biznes va istemolchilarga foyda keltiradi.

Istemolchi markirovkalangan tovarni sotib ola-yotganda uning sifati va xavfsizligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

Raqamli markirovka biznes subyektlariga bozordagi ishtirotini kengaytirish, ish jarayonlarini sod-dalashtirish va mahsulotning ishlab chiqarishdan tortib, yakuniy sotuvgacha bo'lgan harakatini to'liq kuzatish imkonini beradi. Bozorda halol kompaniyalar ko'proq bo'lsa, ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatlashish va biznesni rivojlantirish osonroq bo'ladi.

Davlat markirovkani joriy etish orgali «kulrang» bozorni (kontrafakt tovarlar) qisqartiradi, soliq va bojxona yig'imlari hisobiga budjetni oshiradi.

DATA MATRIX-KODINING QR-KODDAN QANDAY FARQI BOR?

Data Matrix kodi mahsulot haqidagi to'liq ma'lumotni, shuningdek, uning ishlab chiqaruvchisidan tortib do'kon rastasigacha bo'lgan harakati haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Har bir tovar birligi uchun nusxa ko'chirish yoki qalbakilash-tirish mumkin bo'lmagan noyob kod yaratiladi. Shu bilan birga, tovar harakatini nazorat qilish tufayli tovar nusxasining paydo bo'lish ehtimoli yo'qoladi.

QR-kodlar singari Data Matrix ham ikki o'chovli shtrix-kod bo'lib, klassik shtrix-kodlarga nisbatan kamroq joyni egallaydi va katta hajmdagi ma'lumotlarni kodlash imkonini beradi. Bundan tashqari, u juda kichik mahsulotlar yoki dumaloq yuzalar uchun mos keladi.

Data Matrix kodini oddiy kamera yordamida aniqlash mumkin emas, uni skannerlash uchun Asl Belgisi ilovasini yuklab olish zarur.

O'ZBEKISTONDA MARKIROVKA: RAQAM VA FAKTLAR

TAMAKI MAHSULOTLARI

132 ta

Ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi



697,7 ming dona

Musodara qilingan noqonuniy mahsulotlar hajmi

Tamaki mahsulotlarini markirovkalash 2021-yil yanvar oyida filtrli sigaretalardan boshlangan. Hozir tamaki mahsulotlarining barcha turlari, jumladan, sigaretalar, stiklar, elektron sigaretalar va chilim tamakisi markirovka qilinadi.

2024-yil yakuniga ko'ra, «Tamaki mahsulotlari» tovar guruhida 132 ta ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilar faoliyat yuritgan.

Tamaki mahsulotlarini markirovkalash nazoratni sezilarli darajada kuchaytirishga va qoidabuzarliklarni aniqlashga yordam berdi. 2021-yilda atigi ikkita holat qayd etilgan bo'lsa, 2024-yilda esa 103 taga yetdi. Musodara qilingan noqonuniy mahsulotlar hajmi ham keskin oshdi. 2021-yilda 15,4 ming dona mahsulot 96,6 million so'mlik qiymatda musodara qilingan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 697,7 ming donaga va 10,57 milliard so'mga yetdi.

ALKOGOL MAHSULOTLARI



Ro'yxatdan o'tgan ishlab chiqaruvchilar soni oshdi

61 dan **93** gacha

2021

2024

Alkogol mahsulotlarini markirovkalash 2021-yil yanvar oyidan boshlab joriy etilgan bo'lib, u barcha turdag'i ichimliklarni — o'tkir ichimliklar, vino, shamp'an vinosi, kokteyllar, shu jumladan, alyuminiy qadoqlangan mahsulotlarni qamrab olgan.

Umumiyl ishlab chiqarish va import hajmi 29 foizga kamayganiga qaramay, atigi to'rt yil ichida alkogol import qiluvchilar soni 50 foizdan ko'proqqa oshdi. 2024-yilda ro'yxatdan o'tgan import qiluvchilar soni 41 taga yetdi, ro'yxatdan o'tgan ishlab chiqaruvchilar soni esa 2021-yildagi 61 tadan 2024-yilda 93 taga ko'paydi.

Qoidabuzarliklar soni 2021–2022-yillardagi 396 tadan 2024-yilda 978 taga oshgan. Bu esa nazorat samaradorligi ortganini ko'rsatadi. 2024-yilda 365 ming dona alkogol mahsulotlari va 366 ming litrdan ortiq kelib chiqishi noma'lum bo'lgan spirit musodara qilingan.

PIVO VA PIVO MAHSULOTLARI



EHF orqali sotuv hajmi

48%

Kassa cheklari bo'yicha sotuvlar

26% foizga oshdi

2021-yil aprel oyidan boshlab pivo va pivo mahsulotlari majburiy tartibda markirovka qilinmoqda. Shuningdek, alyuminiy qadoqlardagi pivo ham markirovkalanmoqda.

2024-yilda elektron hisobvaraqt-fakturalar (EHF) tizimi orqali pivo va pivo ichimliklarini sotish hajmi o'tgan yilga nisbatan 48 foizga oshdi. Kassa cheklari bo'yicha sotuvlar ham 26 foizga oshdi. Raqamli markirovkalashning joriy etilishi mahsulot harakatini samarali kuzatish va kontrafaktni aniq-

lash imkonini berdi, bu esa bozorni shaffoflanti-rishga yordam berdi. Pivo sotadigan qonuniy savdo nuqtalari soni 4,6 mingdan oshdi, bu esa 2021-yilga nisbatan 148 baravar ko'pdir.

TIBBIY MAQSADDA ISHLATILADIGAN DORI VOSITALARI VA BUYUMLARI



2024-yilda farma-tsevtika bozorining

13% ga o'sdi

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni markirovkalash bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2022-yil 1-sentabrdan qutilardagi dori vositalari, 2022-yil 1-noyabrdan tashqi qadoqsiz ishlab chiqariladigan dori vositalari, 2025-yil 1-martdan esa sertifikatlari O'zbekistonda tan olinadigan orfan dori vositalari va import qilinadigan dori vositalari uchun markirovkalash majburiy etib belgilandi.

Dorilarni markirovkalash bilan mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar, jumladan, Rossiya (70 ta kompaniya), Hindiston (221 ta) va Yevropa Ittifoqi (152 ta) kompaniyalari shug'ullanadi. 2022-yilda tizimda 157 ta ishlab chiqaruvchi bo'lgan bo'lsa, 2024-yil oxiriga kelib ularning soni 800 taga yetdi. Ro'yxatdan o'tkazilgan preparatlar soni 8 baravarga oshib, 1 528 tadan 12 300 taga yetdi. Shu bilan birga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarda markirovkalash hajmi 12 foizga oshdi.

Ishlab chiqaruvchi va distribyutorlar elektron kuzatuvchanlikka o'tishga to'liq tayyor. Distribyutorlar soni 2023-yildagi 350 tadan 2024-yilda 881 taga yetdi, markirovka kodlari aylanmasi esa 5,5 baravarga oshdi.

Ro'yxatdan o'tgan chakana savdo ishtirotchilari soni 30 baravarga oshdi. 2023-yilda 226 tani tashkil etgan chakana savdo ishtirotchilari soni 2024-yilga kelib 6,5 mingga yetdi.

Muomaladan chiqarilgan markirovkalangan dori vositalari hajmi 18,5 baravarga oshgan. IQVIA xalqaro tahlil kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil sentabridan 2024-yil sentabrigacha O'zbekiston farmatsevtika bozori 13 foizga o'sib, 20,345 trln so'mni tashkil etdi.

SUV VA SALQIN ICHIMLIKLER



2025-yilda

197 ta

ishlab chiqaruvchi

2024-yilga nisbatan

71% ga

ko'p

2024-yil 1-martdan boshlab suv va salqin ichimliklarni majburiy raqamli markirovkalash boshlandi.

Markirovka suv, sharbatlar, gazli ichimliklar, energetiklar va boshqa ichimliklar uchun majburiydir. Umumiyl ovqatlanish muassasalarida mustaqil ravishda tayyorlanadigan ichimliklar bundan mustasno. Shuningdek, joyida tayyorlangan kompotlar, limonadlar, smuzilar, freshlar, kokteyllar markirovka qilinmaydi.

Markirovka tizimi suv va salqin ichimliklar bozorini qonuniylashtirishga yordam berdi. 2025-yil mart oyiga kelib, markirovkalangan tovarlar reyestrida 197 ta ishlab chiqaruvchi ro'yxatga olingan, bu o'tgan yilga nisbatan 71 foizga ko'p. 2025-yilning mart oyida 2024-yilning mart oyiga nisbatan 72 foizga ko'p kod qo'yildi. Bu bilan birga, import qilingan mahsulotlarga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 253 foizga ko'p kod qo'yilgan.



Maishiy texnika va elektronikani markirovkalash 2022-yil aprel oyida boshlangan. Birinchi bosqichda changyutkichlar, kir yuvish mashinalari, sovitish va muzlatish uskunalari, televizor va monitorlar markirovka qilindi. Keyin bu ro'yxatga gaz plitalari, dudburonlar, duxovkalar, mikroto'lqinli pechlar, dazmollar va suv isitkichlar qo'shildi. Yakkuniy bosqichda markirovkalash konditsionerlar, o'rnatilgan elektr motorli maishiy texnika va barcha turdag'i yoritish moslamalariga tarqaldi.

2024-yilda ushbu toifadagi tovarlarni markirovkalash hajmining sezilarli o'sishi qayd etildi. 2023-yilga nisbatan markirovkalash hajmi 16 foizga, markirovkalash kodlari aylanmasi esa 52,3 foizga oshgan.

O'zbekistonda 2024-yil yakuni bo'yicha markirovkalangan maishiy texnikalar soni 2022-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 450 foizga oshgan. Tizimda ro'yxatdan o'tgan ishtirokchilar soni esa uch baravardan ko'proqqa o'sdi.

O'zbekistondagi eng mashhur Uzum Market marketpleysida 2024-yilda maishiy texnika aylanmasi 160 foizga oshdi. Bu xaridorlar qonuniy joyda ishlaydigan sotuvchilarga ishonib, tobora ko'proq tekshirilgan va rasmiy markirovkalangan tovarlarni tanlayotganidan dalolat beradi.

BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALARINI RAQAMLI MARKIROVKALASH BO'YICHA TAJRIBA LOYIHASI

BFQlar ko'pincha dori vositalarining o'rnini bosuvchi sifatida reklama qilinadi. Ammo bu toifadagi mahsulotlar bozorida qalbakilashtirilgan, sifatsiz va hatto inson salomatligiga zarar yetkazuvchi kontrabanda mahsulotlar ham keng tarqalgan. Markirovkalash esa sifatsiz mahsulotlarni bozordan chiqarish va odamlarga haqiqatan ham xavfsiz va foydali qo'shimchalarni sotib olish imkoniyatini berish uchun kerak.

2025-yil mart oyidan boshlab BFQlarni ixtiyoriy tartibda markirovkalash bo'yicha tajriba loyihasi ishga tushirildi. Bu loyiha mahsulotlarning haqiqiyligini ta'minlash, qalbakilashtirishga qarshi kurashish va umumiylar xavfsizlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirda ishlab chiqaruvchilar va importyorlar markirovkan o'z xohishlariga ko'ra joriy etmoqda.

Biroq kelgusida BFQlarni markirovkalash majburiy bo'lishi ko'zda tutilgan.

TOVAR AGREGATSIYASI NIMA?

Tovar agregatsiyasi — bu tovarlarni transport o'ramlari shaklida guruhlash va ularni yagona identifikatsiya kodi bilan belgilash jarayonidir. Bu kod o'ram ichidagi barcha iste'mol birliklariga tegishli kodlar o'ttasidagi bog'liqlik haqida ma'lumot saqlaydi.

Bu tizim logistika jarayonlarini soddalashtirishda muhim rol o'ynaydi: tashish jarayonida har bir mahsulot birligini alohida tekshirish o'rniiga, butun qadoq yoki partiyaga birkirtirilgan yagona kod orqali nazorat amalga oshiriladi. Natijada har bir bosqichda faqat bitta kod skanelansa kifoya. Bu esa jarayonni tez, samarali va aniq qiladi.

IMPORT QILINADIGAN TOVARLARNING SIFATI QANDAY TEKSHIRILADI?

O'zbekistonga olib kiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari va biologik faol qo'shimchalar albatta laboratoriya tekshiruvidan o'tishi lozim. Bu jarayon mahsulotning xavfsizligi, amal-dagi me'yorlarga hamda e'lon qilingan xususiyatlarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Tekshiruv natijalariga ko'ra maxsus sertifikat beriladi — bu mahsulot sifat nazoratidan muvaffaqiyatlari o'tganini tasdiqlovchi rasmiy hujjatdir. Xaridor esa mahsulotning asl va xavfsiz ekani haqida ishonch hosil qilish uchun ushbu sertifikatni talab qilish huquqiga ega.

Sifat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli organlar:

- Sog'lijni saqlash vazirligi huzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi — mahsulotlarni ro'yxatdan o'tkazish, ekspertizadan o'tkazish va ularning tarkibiy muvofigligini monitoring qilish bilan shug'ullanadi;
- Davlat bojxona qo'mitasi — olib kirish bosqichida nazoratni amalga oshiradi;
- O'zstandart agentligi — ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlarning amalagi standartlarga muvofiqligini tekshiradi;
- Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi - bozor tahliliga e'tibor qaratgan holda BFQlar va kosmetika sanoatini rivojlantirish uchun mas'ul bo'lib, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hamda ilg'or xalqaro amaliyot va standartlarni joriy etishni amalga oshiradi.



TOVARLARNI MARKIROVKALASH NARXI QANCHА VA QANDAY NOZIK JIHATLARNI BILISH MUHIM?

Bitta birlikdagi tovari markirovkalash QQS bilan birga 76,16 so'm turadi. Tannarx allaqachon kodni yaratish va har bir tovar birligi uchun ushbu kodni kompaniyalar o'rtasida uzatish to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlashni o'z ichiga oladi.

Agar kod chop etish paytida shikastlangan bo'lsa, markirovka kodini chiqarish uchun qayta to'lov qilish kerak bo'ladi. Buning sababi shundaki, muhrash va markirovka kodini kiritish operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxatiga kiritilmagan.

QANDAY MAHSULOTLAR BEPUL MARKIROVKA QILINADI?

Ixtiyorli asosda amalga oshirilayotgan barcha pilot loyihalarda ishtirok etayotgan ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilarga markirovka kodlari bepul taqdim etiladi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda ishlab chiqarilgan va 0,5 litrgacha bo'lgan hajmdagi plastik idishlarda sotiladigan gatzsiz ichimlik suvlari uchun ham markirovka kodlari bepul beriladi.

Shuningdek, agar dori vositalarining narxi Bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) bir foizidan past bo'lsa (2024-yil 1-oktabrdan boshlab bu miqdor 3,5 ming so'mga teng) va ular maxsus tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq kelsa, bunday dori vositalari uchun ham markirovka kodlari operator tomonidan bepul taqdim etiladi.

RAQAMLI MARKIROVKASIZ TOVARLARNI SOTISH UCHUN JARIMA QANCHА?

Tovarni markirovkasiz sotish yoki qoidalarini buzish hollarida mas'ul shaxslar va korxonalar qonunga muvofiq jazoga tortiladi. Birinchi marta qoidabuzarlik sodir etilganida, jarima tushumning 2 foizini tashkil etadi. Agar bir yil ichida takroran qoidabuzarlik yuzaga kelsa, jarima sof tushumning 20 foizigacha oshiriladi.

Bundan tashqari, jarima bir qator holatlarda ikki baravarga kamaytirilishi mumkin. Birinchi dan, agar soliq to'lovchi qoidabuzarlikni tan olib, jarimani olgan kundan boshlab 10 kun ichida uni ixtiyorli ravishda to'lasa. Ikkinchidan, soliq to'lovchida shaxsiy turdag'i uzrli sabablar mavjud bo'lgan taqdirda.

Tezlik, samaradorlik, shaffoflik

CRPT TURON BOSH DIREKTORI
ANATOLIY BACHIKALOV
RAQAMLI MARKIROVKALASH
TIZIMI O'ZBEKISTONDA
YASHIRIN IQTISODIYOTGA
QARSHI KURASHDA QANDAY
SAMARALI VOSITA BO'LIB
XIZMAT QILAYOTGANINI
TUSHUNTIRIB BERDI



O'zbekistonda majburiy markirovkalash tizimi joriy etilganiga uch yilga yaqin vaqt o'tdi. Shu vaqt mobaynida tizim tamaki mahsulotlaridan torlib, dorilargacha bo'lgan bir qancha muhim tovar guruhlarini qamrab oldi. Kursiv Research CRPT TURON bosh direktori Anatoliy Bachikarov bilan suhbatda biznes qanday qiyinchiliklarga duch kelgani, nega markirovka davlat ahamiyatida qolayotgani va bugungi kunga kelib qanday natija-larga erishilgani haqida suhbatlashdi.

MARKIROVKALASH JARAYONINING BOSHLANISHI

— Anatoliy Viktorovich, oltita tovar guru-hida majburiy markirovkalash joriy etilganiga ham uch yilga yaqin vaqt o'tdi. Shu davrda biznes bu yangilikni qanday qabul qilgani haqida so'zlab bersangiz?

— Korxonalar ishlab chiqarish jarayonlari ni qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldi, ammo dastlab bu zaruratning mohiyatini ko'p-chilik yetarlicha anglamagan. Bu jarayonda tamaki drayver bo'ldi. Tamaki kompaniyalari o'zgarishlarning maqsadini aniq anglagan edi, chunki bozorda kontrafakt mahsulotlar ulushi yuqori edi. Kompaniyalar butun jarayonni o'zları boshqardi. O'zbekistonda markirovkalash aynan tamaki mahsulotlaridan boshlangan va bu majburiy markirovkaga tushgan biringchi tovar guruhi bo'lgan. Masalan, Rossiyada tamaki mahsulotlari allaqachon markirovkalangan edi. O'zbekistonda esa tamaki kompaniyalari bu jarayonga ma'nnaviy va texnologik jihatdan tayyor edi. Davlat mahsulotning qayerda markirovkalangani yoki markirovkalanganmagani asosida nazoratni kuchaytirib, kontrafakt mahsulotlarni aniqlash, olib qo'yish va ularning bozordagi ulushini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bu borada bizga omad kulib boqqanini aytish mumkin — hammasi muvaffaqiyatlari amalga oshdi. Masalan, Koreyaning mashhur ishlab chiqaruvchisi ESSE kompaniyasi ilgari O'zbekistonga o'z sigaretalarini rasman yetkazib bermagan. Shunga qaramay, Toshkent bozorida bu mahsulotlar keng tarqalgan edi. Markirovkalash joriy etilganiga ikki yil bo'ldi. Bu davrda bozor asta-sekin «tozalana» boshlandi. Natijada ESSE kompaniyasi qonuniy ishlab chiqarish va rasmiy tarzda bozorda ishtirok etish qaroriga keldi. Hozirda kompaniya Qozog'istonda zavod qurilishiga sarmoya kiritmoqda. Mahsulotlar esa Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YOII) doirasida tovarlarning erkin harakatlanishi tamoyiliga ko'ra, O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa ittifoq davlatlari bozorlariga qonuniy ravishda yetkazib berilishi rejalashtirilgan.

Albatta, kontrafakt mahsulotlar darajasi hanuzgacha butunlay yo'qolgan emas, biroq ularga qarshi kurashishda samarali vositalar mavjud. Ilgari aksiz markasini soxtalashtirib, qutiga yopishtirish va mahsulotni qonuniy sigaret sifatida sotish mumkin edi. Hozir esa markirovka har bir sigaret qutisining qonuniy yoki noqonuniy ekani ni aniq ajratishga yordam beradi.

TOVARLARNI «SOYADAN» CHIQARISH BO'YICHA DAVLAT STRATEGIYASI

— Anatoliy Viktorovich, nega tovarlarni raqamli markirovkalash loyihasiga katta ahamiyat berilayotganini ayta olasizmi?

— O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ulushi sezilarli darajada yuqori bo'lib, taxminan 50 foizni tashkil etadi. Bu holatni kamaytirishga bo'lgan ehtiyoj kuchli. Shu sababli raqamli markirovkalash loyihasi doirasida avvalo «soyada» muomalada bo'lgan mahsulot turlari — aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar, ichimlik va farmatsevtika bozori ustuvor yo'nalish sifatida tanlab olindi.

Bugun bu islohotlar ilk natijalarini bera boshladi. 2024-yilda aksiz tushumlari sezilarli

Bugun bu islohotlar ilk natijalarini bera boshladi.

2024-yilda aksiz tushumlari sezilarli darajada oshdi, bu tamaki mahsulotlari bozorining qonuniylashishi va yashirin savdoning qisqarishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, alkogol segmentida ham izchil ishlar olib borilmoqda. Kuzatuv tizimi faol ishlayapti, Soliq qo'mitasi esa bu jarayonga alohi da e'tibor qaratmoqda. Shu bois tovarlarni raqamli markirovkalashga yuqori darajada ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu mexanizm yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda samarali vositaga aylanyapti.

oshdi, bu tamaki mahsulotlari bozorining qonuniylashishi va yashirin savdoning qisqarishi bilan izohlanadi. Shuningdek, alkogol segmentida ham izchil ishlar olib borilmoqda. Kuzatuv tizimi faol ishlayapti, Soliq qo'mitasi esa bu jarayonga alohi da e'tibor qaratmoqda. Shu bois tovarlarni raqamli markirovkalashga davlat darajasida ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu mexanizm yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda samarali vositaga aylanyapti.

NAZORATGA MUNOSABAT: BOZORDA NIMA O'ZGARMOQDA

— Markirovkaning joriy etilishiga qanday qaraysiz, qiyinchiliklar ortda qoldimi?

— Nafaqat yashirin iqtisodiyotni, balki inson salomatligini ham ta'kidlash juda muhim. Bunga yaxshi misol keltirish mumkin. O'zbekistonda markirovkalash jarayoni boshlanishidan oldin dori vositalariga 33 mingta ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasi berilgan edi. Biroq markirovkalash allaqa-

chon joriy etilgan qo'shni mamlakatlarda, masalan, Rossiya Federatsiyasida bunday preparatlar soni 16 mingdan oshmagani. Hozirgi kunda O'zbekistonda rasman ro'yxatdan o'tgan dori vositalari soni 13 mingga yaqin bo'lib, ularning barchasi markirovka qilinmoqda. Qolgan barcha dorilar noqonuniy bo'lib, bozordan chiqishga majbur bo'lmoqda.

— Markirovka joriy etilishi noqonuniy bozorga qanday ta'sir ko'rsatdi?

— Men yaxshi ko'radian ajoyib misol bor — bu Toshkentning Chimkentga yaqinligi. 2018-yilda O'zbekistonga kelganimda ayrim daryolar va chegaralarni qanday kesib o'tgani aniq bo'lмаган Chimkent pivosi katta miqdorda Toshkent bozorida bemalol sotilardi. Bu mahsulotlar shunchalik ko'p ediki, ularning bu yerga qanday kelgani haqidada faqat taxmin qilish mumkin edi. Biroq pivoni majburiy markirovkalash joriy etilgach, vaziyat keskin o'zgardi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar soni birdaniga 30 foizdan ko'proqqa oshdi. Bu esa aynan ushbu mahsulotlarning noqonuniy aylanmasi kamyagni hisobiga sodir bo'ldi.

— 2021-yilda raqamli markirovkalash tizimi uchun Asl Belgisi ilovasi ishga tushirildi. Ilova fuqarolik nazorating qanchalik talabgir va samarali vositasi bo'lib chiqdi?

— Bugungi kunga kelib, mobil ilova foydalanuvchilar soni 300 mingga yaqin. Albatta, biz ilovaning yanada keng tarqalishini istaymiz. Sababi bu odamlarning dorixonalarda haqiqiy va qalbaki dorilarni farqlay olishi bilan bog'liq. Umid qilamizki, yaqin orada foydalanuvchilar soni sezilarli darajada ortadi.

Shuningdek, biz Farmatsevtika tar-mog'ini rivojlantirish agentligi hamda o'z ilovasiga ega bo'lgan Davlat soliq qo'mitasi bilan yaqin hamkorlik qilmoqdamiz. Ular bilan API orqali ma'lumot almashmoqdamiz. Odamlar mahsulotlarni faqat Asl Belgisi ilovasi orqali emas, balki hamkorlarning ilovalari orqali ham tekshirishi mumkinligini tushunib yetishlari zarur. Bu esa nazorat tizimini yanada samarali qiladi.

— 2025-yil boshida tovarlarni markirovka-lashda qanday ishlar amalga oshirildi?

— Aksiz to'lanadigan mahsulotlar segmentida guruhli qadoqlashning joriy etilishi 2025-yil boshidagi eng muhim yangiliklardan biri bo'ldi. Ushbu yondashuv biznes uchun mahsulotni donalab emas, balki o'ram holida sotish imkonini yaratdi. Endi kassada har bir shishani alohida skanerlash shart emas, butun o'ramni bir marta skanerlash kifoya. Bu esa savdo jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi va mahsulotni tezda muomalaga chiqarish imkonini beradi.

Ikkinci muhim yangilik esa 1-martdan boshlab biologik faol qo'shimchalarni (BFQ) ixtiyoriy ravishda markirovkalash loyihasining ishga tushirilganidir. 17 tadan ortiq ishlab chiqaruvchilar ushbu jarayonni imkon qadar tezroq boshlashni so'rab murojaat qilishdi. Ularning fikricha, O'zbekiston bozorida qalbaki qo'shimchalarining ulushi 70 foizza yetishi mumkin. Ishonchim komilki, markirovka orqali biz bu muammoni hal etishga erishamiz.

RAQAMLI MARKIROVKANING

O'zbekiston iqtisodiyoti va soliq tushumlariga ta'siri

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI MARKIROVKA TIZIMI SO'NGGI BIR NECHA YILDAN BUYON BOSQICHMA-BOSQICH JORIY ETILMOQDA. UNING ENG MUHIM KUTILAYOTGAN NATIJALARIDAN BIRI BOZOR SHAFFOFLIGINI TA'MINLASHDIR. TOVARLAR HAqidagi MA'LUMOTLARNING OCHIQLIGIGA RAQAMLI MARKIROVKANING TA'SIRI HAQIDA DAVLAT SOLIQ QO'MITASI RAISI **SHERZOD KUDBIYEV** BILAN SUHBATLASHDIK.

— Sherzod Davlyatovich, siz Soliq qo'mitasi raisi sifatida O'zbekistonda raqamli markirovka tizimini joriy etilishining tashabbuskorlaridanisz. Ushbu tizimni joriy etish orqali qanday strategik maqsadlar ko'zlangan va soliq organlari bu jarayonga qanday tayyorgarlik ko'rgan?

— Raqamli markirovkalash tizimini joriy etishning dastlabki shartlari O'zbekiston yashirin iqtisodiyotni jilovlash bo'yicha belgilagan strategik maqsadlari bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Soliq qo'mitasi zimmasiga ushbu sohadagi raqamlash-tirish jarayonining mantiqiy davomi sifatida tovarlarni kuzatib borishning innovatsion usullarini joriy etish, soliq nazoratida inson omilining ishtirotini cheklash hamda iste'molchilarni qalbaki mahsulotlardan himoya qilish kabi muhim va murakkab vazifalar yuklatildi. Aynan shu omillarni inobatga olgan holda, raqamli markirovka majburiy tarzda tatbiq etilishi zarur bo'lgan mahsulotlar guruhini aniqlashda «kulrang» iqtisodiy operatsiyalarni chuqur tahlil qilish hal qiluvchi rol o'ynadi. Natijada yashirin iqtisodiyotda eng yuqori ulushga ega bo'lgan mahsulot turlari aniqlanib, ularni biringchi bosqichda raqamli markirovkalash zarurligi belgilab olindi.

Raqamli markirovkalash tizimini amaliyotga samarali joriy etish maqsadida Soliq qo'mitasi tomonidan texnik jihatdan jihozlarni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Ma'lumotlarni qayta ishslash markazi va server us-kunlari yangilandi, zamonaviy telekommunikatsiya vositalari o'rnatildi. Mazkur ishlar soliq organlarining aloqa infratuzilmasi va axborot xavfsizligi tizimini to'liq modernizatsiya qilish, soliq ma'muriyatichiligining yagona raqamli platformasini yaratish, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beruvchi ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda soliq to'lovchilarga real vaqt rejimida foydalanish mumkin bo'lgan xizmatlar ko'lamin kengaytirishga yo'naltirilgan. Natijada yangi dasturiy mahsulotlar soni 74 taga yetkazildi.

Bugungi kunda soliq boshqaruvidagi raqamli vositalar — elektron hisob-fakturalar, fiskal cheklar, onlayn nazorat-kassa texnikasi, mahsulot

va xizmatlarning identifikatsiya kodlari (MXIK), shuningdek, elektron soliq hisobotlari soliq tizimi-dagi ish jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Natijada davlat budjetiga tushumlar ortib bormoqda, bozor esa bosqichma-bosqich rasmiy sektor yo'nalishida shakllanmoqda. Markirovka tizimi yirik loyiha bo'lishiga qaramay, u Soliq qo'mitasi tomonidan bosqichma-bosqich joriy etilayotgan raqamli transformatsiya ekotizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Biz mulohazali va bosqichli yondashuv tamoyiliga tayananamiz, ya'ni tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish orqali bu jarayon ikki tomonlama manfaatli bo'lishi kerak. Umumiyl maqsadimiz — yashirin ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilarni bozordan chetlatib, raqobatga asoslangan sog'lom va adolatlbozor muhitini shakllantirishdir.

Bugungi kunda markirovkalangan tovarlar haqidagi to'liq ma'lumotni soliq inspektori interaktiv panel orqali ko'rishi mumkin. «Raqamli markirovka ostidagi mahsulotlar aylanmasini nazorat qilish» (dashbord) nomli yangi axborot-tahliliy dastur milliy Asl belgisi markirovka va kuzatuv tizimi bilan integratsiya qilingan bo'lib, mahsulotning ishlab chiqaruvchidan tortib chakana savdogacha bo'lgan yo'lini real vaqt rejimida ko'rsatadi. Ushbu tizimda 3,5 mingga yaqin ishlab chiqaruchi va import qiluvchi ro'yxatdan o'tgan. Ular 2024-yilning o'zida 100 mingdan ortiq mahsulot turini markirovkalananidan tovarlar reyestriga kiritib, qariyb 8,2 milliard dona markirovkalangan mahsulot ishlab chiqargan.

— Biznesning munosabati qanday bo'ldi?

— Biznesning munosabati turlicha bo'ldi. Mamlakatda majburiy raqamli markirovka joriy etilishi rasman e'lon qilingan ilk kunlardanoq jarayon faqat biznes manfaatlarini inobatga olgan holda, ishlab chiqarish hajmlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan Soliq qo'mitasi tomonidan tezkor va har tomonlama texnik hamda axborot yordami bilan amalga oshirilmoqda. Tayyorgarlik bosqichi kamida bir yil davom etadi. Markirovka tarafdarining soni ortib borayotgani bir nechta omillar bilan bog'liq: ishlab chiqaruvchilar va importchi-



learning o'z vaqtida xabardor qilinishi, pilot loyi-halar doirasida soliq inspektorlari tomonidan olib borilgan tushuntirish ishlari, fuqarolik jamiyati institutlari (assotsiatsiyalar, jamoat kengashlari) vakillarining jalb etilishi. Albatta, imtiyozlarning ham o'rni katta. Jumladan, 2027-yil 1-yanvargacha tadbirkorlarga raqamli markirovka kodlarini o'qish qurilmalarini xarid qilish xarajatlarini soliqdan chegirish huquqi berilgan. Bugungi kunga kelib, 180 887 nafar tadbirkor 108 535 dona 2D-skanner yoki boshqa maxsus qurilmalardan foydalanmoqda. Shuningdek, raqamli markirovka uchun zarur uskunalarni olib kirishda 2027-yil 1-iyungacha ishlab chiqaruvchilar bojxonasi bojlari to'lovidan ozod qilingan (30.05.2024-yildagi PQ-203-son).

Tadbirkorning shaxsiy kabinetida va Soliq mobil ilovasida markirovkalangan tovarlarni mustaqil inventarizatsiya qilish uchun yangi «Raqamli markirovkalangan mahsulotlar aylanmasi» xizmati joriy etildi. Ushbu xizmat orqali markirovkalangan mahsulotlarning joriy qoldig'ini ko'rish, tovar harakatini (kimga sotilgan yoki kimdan sotib olinganini) kuzatish, markirovka kodlari tarixini va harakatini tahlil qilish mumkin. Eng asosiysi, bu barcha funksiyalar real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Mahsulot harakatining uzluksiz kuzatuv zanjirini to'liq joriy etish, bozorda kontrafakt va qalbaki mahsulotlar muammosini bartaraf etish barcha bozor ishtirokchilari manfaatiga xizmat qiladi.


Albatta, Soliq qo'mitasi ayrim biznes vakillari islohotlarga ijobji munosabat bildirmagan, yangiliklarga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan yondashgan holatlarga duch kelgan. Biroq vaqt o'tishi bilan aynan o'sha tadbirkorlar raqobatchilarining tovar aylanmasi oshganini ko'rib, raqamli markirovkaning ijobji natijalarini tan oldi. Statistik ma'lumotlar majburiy raqamli markirovka tortiladigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi subyektlar soni sezilarli darajada oshganini ko'r-satmoqda. Taqqoslash uchun, 2021-yilda raqamli markirovka bozorida ishtirok etgan kompaniyalar soni (ishlab chiqaruvchilar va importchilar) 931 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib, bu ko'r-satkich 3 595 taga yetgan. Bu esa uch baravardan ziyyod o'sishni anglatadi.

— Qaysi bozor segmentlari eng katta o'sishni ko'rsatdi va bu holat budgetga tushayotgan soliq tushumlariga qanday ta'sir ko'rsatdi?


Eng katta o'sish ishtirokchilar ishlab chiqaruvchilar va importchilar soni bo'yicha quyidagi tovar guruhlarida kuzatildi: alkogol mahsulotlari bo'yicha 75 ta kompaniya, tamaki mahsulotlari — 72 ta, pivo — 54 ta, maishiy texnika — 1 714 ta, dori vositalari — 627 ta, suv va salqin ichimliklar — 122 ta.

Agar raqamli markirovkaning soliq tushumliga ta'siri haqida gapiradigan bo'sak, biz alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqarish hamda realizatsiyasida mo'liyaviy oqimlarning oshganini ko'ryapmiz. Ushbu mahsulotlarning raqamli markirovka tizimiga kiritilishi mamlakat budgetiga soliq tushumlarining ortishiga shubhasiz hissa qo'shdi.


Alkogol mahsulotlari



Tamaki mahsulotlari



Maishiy va boshqa texnikalar



Maishiy texnika segmentida tovar aylanmasining ortgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ushbu holat ishlab chiqaruvchi va importchilarning mazkur yo'nalishga bo'lgan yuqori qiziqishini aks ettiradi.

— Dori-darmon bozoridagi vaziyat haqida so'zlab bersangiz.


— Dori vositalari va tibbiy buyumlar ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar toifasiga kiradi. Shu bois, ularni markirovkalash Soliq qo'mitasiga faoliyatidagi eng mas'uliyatlari va dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Aynan dori vositalari va tibbiy buyumlarning raqamli markirovkasi orqali nafaqat

soha bo'yicha aniq va tizimli tahlil imkoniyati yuzaga keldi, balki ishlab chiqaruvchi yoki importchidan to yakuniy iste'molchigacha bo'lgan butun harakat zanjirini kuzatish imkoniyati ham yaratildi.

Dorixonalarda xarid amalga oshirilganda xardorga taqdim etiladigan fiskal cheklarda dori vositarining Mahsulotlar va xizmatlar identifikatsiya kodlari (MXIK) aks ettiriladi. Bu Soliq qo'mitasiga aholining dori xarajatlari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu ma'lumotlar asosida dori vositarining narx shakllanishi, muayyan doriga oid epidemiologik holat hamda harakat zanjiri chuqur tahlil qilinadi. Chunki markirovka kodlari va MXIK ma'lumotlari elektron hisob-fakturalarda to'liq aks ettiriladi.

Mazkur ma'lumotlar har bir tuman va mahalla kesimida shakllantiriladi. Bu esa bozordagi shaffolik darajasini sezilarli darajada oshiradi hamda nazorat mexanizmlarining samaradorligini bir necha baravarga kuchaytiradi.

Tibbiy maqsadda ishlatiladigan dori vositalari va buyumlar



Mazkur sohada raqamli markirovka vositalari fuqarolarning salomatligini himoya qilishda muhim rol o'ynamoqda. Ular nafaqat kontrafakt va sifatsiz dori vositalaridan himoyalash, balki mahsulotlarni standartlashtirish va unifikatsiya qilish imkonini ham yaratadi. Bu esa ichki bozorni noqonuniy va qalbaki mahsulotlardan — ularning mahalliy yoki import kelib chiqishidan qaf'i nazar tozalashga xizmat qilmoqda.

2023-yil martidan 2024-yil apreliga qadar bo'lgan davrda dori vositalarini noqonuniy ishlab chiqarish va muomalaga chiqarish bilan bog'liq 600 dan ortiq holat aniqlangan. Raqamli markirovka va tegishli ruxsat hujjatlari bo'limgan 30 mingdan ortiq qadoq mahsulot muomaladan chiqarilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 28,1 milliard so'mdan oshgan.

Noqonuniy mahsulot xarididan o'zini himoya qilishni istagan iste'molchilar uchun Soliq qo'mitasining mobil ilovasida «Markirovkanai tekshirish» servisi yo'lga qo'yilgan. Ayni paytda ushbu ilovada 10,5 milliondan ortiq foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan.


Diqqatga sazovor jihat shuki, mahsulotda raqamli markirovkaning mavjud emasligi xaridorda shuba uyg'otishi kerak. Ikkinchidan, agar mahsulotdagi Data Matrix kodini skanerlash vaqtida tizim «Kod haqiqiy emas» degan xabarni chiqarsa, bu ham xavotirli holat sanaladi. Raqamli markirovkaning noto'ri qo'llanilganini yoki butunlay yo'qligini aniqlagan har bir fuqaro «Soliq hamkor» mobil xizmati orqali soliq organlariga elektron murojaat yuborishi mumkin.

— Raqamli markirovkaning joriy etilishi O'zbekistonda soliq tushumlariga qanday ta'sir ko'rsatdi?

— 2021-yildan boshlab raqamli markirovka tizimi orqali budgetga tushayotgan tushumlar yangi

bosqichga chiqdi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, davlat budgetiga tushgan soliq tushumlari sezilarli darajada oshib, 26,4 trillion so'mni tashkil etdi. Bu 2023-yilga nisbatan 4,9 trillion so'mga ko'pdir.

Markirovkalangan tovar guruhlari bo'yicha soliq tushumlarining o'sishi (trln so'mda)



2024-yil yakunlariga ko'ra, markirovkalangan mahsulotlar realizatsiyasining umumiyyajmi 166,1 trillion so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,1 trillion so'mga ko'p.

— Raqamli markirovkanai joriy etishni qanday xalqaro tashabbuslar ham q'llab-quvvatlamoqda?

— Rossiya va O'zbekiston hukumat rahbarlari darajasidagi yaqin hamkorlik va samarali ishlar natijasida, Rossiya Federal soliq xizmati hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi o'ttasida dori vositalari uchun raqamli markirovka kodlari bo'yicha ma'lumot almashish maqsadida axborot integratsiyasi yuzasidan bitim imzolandi.

Mazkur hujjat — dori vositalari markirovkasing ikki davlat tomonidan o'zaro tan olinishi hamda farmatsevtika mahsulotlari sohasidagi xalqaro hamkorlikning ilk muhim bosqichidir. Bu orqali markirovkalangan mahsulotlar aylanmasining shaffoligini ta'minlash imkoniyati yaratilmoqda. Soliq qo'mitasi o'zining ijobji tajribasini boshqa mamlakatlar bilan faol ravishda baham ko'rmoqda. Joriy yilda Qozog'istonda pivo mahsulotlarini markirovkalash tizimi ishga tushirilishidan oldin Soliq qo'mitasi qo'shni davlat delegatsiyasi tashrif buyurdi. Shuningdek, boshqa mamlakatlar ham bu jarayonga qiziqish bildirmoqda.

— Uzoq muddatli istiqbolda raqamli markirovkanai joriy etishdan qanday iqtisodiy sa'malarini kutmoqdasisiz?

— Uzoq muddatli istiqbolda biz raqamli markirovkaning biznes yuritish sharoitlarini yaxshilashga, investorlar ishonchini oshirishga va ichki bozorni rivojlantirishga xizmat qilishini kutmoqdamiz. Muhimi, markirovka butun iqtisodiy jarayonlarning modernizatsiyasiga turki beradi, bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shubhasiz, erishilgan natijalar hukumat tomonidan majburiy raqamli markirovka joriy etilishi mumkin bo'lgan boshqa tovar guruhlari ko'rib chiqish uchun mustahkam asos yaratadi.



O'ZBEKISTONDA BFQLARNI MARKIROVKALASH

SVYATOSLAV POLYAKOV

2025-YIL 1-MARTDAN BOSHLAB O'ZBEKISTONDA BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALARINI (BFQ) IXTIYORIY RAQAMLI MARKIROVKALASH LOYIHASI BOSHLANDI. USHBU YANGILIK NAFAQAT BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALAR BOZORINI SHAFFOFLASHTIRISH, BALKI UNI HAM ISTE'MOLCHILAR, HAM TADBIRKORLAR UCHUN XAVFSIZ QILISH IMKONINI BERADI. KELING, BU MASALANING AHAMIYATIGA CHUQURROQ NAZAR TASHLAYMIZ.

So'nggi yillarda O'zbekistonda biologik faol qo'shimchalarga bo'lgan talab barqaror o'sishda davom etmoqda. Ayniqsa, koronavirus pandemiyasi davri va undan so'ng ko'plab odamlar sog'liqni saqlash hamda immunitetni mustahkamlashning ahamiyatini yanada chuqurroq anglay boshladи, jumladan, buni qo'shimchalar yordamida amalga oshirishga qiziqish ortdi.

O'tgan yilning avgust oyida Kursiv Uzbekistan tomonidan o'tkazilgan so'rovnama natijalariga ko'ra, O'zbekistonda aholisi 500 mingdan ortiq bo'lgan shaharlarda har uchinchi fuqaro ma'lum bir davriylikda biologik faol qo'shimchalarni iste'mol qiladi.

Salomatlikka mas'uliyatlari yondashuvni faqat qol-lab-quvvatlash mumkin. Ammo hozircha O'zbekistondagi biologik faol qo'shimchalar bozori shaffoflikdan yiroq. Bunga sabab — kontrafakt mahsulotlar va «kulrang» import orqali olib kirilayotgan tovarlar ulushining yuqoriligi. Aynan raqamli markirovkash tizimi ushbu salbiy tendensiyalarning oldini olishga xizmat qilishi kutilmoqda.

ISTE'MOLCHILAR UCHUN AFZALLIKLAR

SIFAT VA XAVFSIZLIK KAFOLATI

Qalbaki biologik faol qo'shimchalarini sotib oluvchilar ikki karra xavf ostida qoladi. Ularga foydali qo'shimcha niqobi ostida immunitetni mustahkamlaydigan oddiy platsebo yoki hatto og'ir zaharlanishga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan zararli moddalar sotilishi ehtimoli bor. Shuning uchun xarid qilayotgan narsangiz tekshirilgan va xavfsiz bo'lishi muhim.

Raqamli markirovka yordamida iste'molchilar mahsulotning barcha zaruriy sinov va tajribalardan o'tgani, shuningdek, belgilangan sifat va xavfsizlik me'yorlariga mos kelishini osongina tasdiqlashlari mumkin. Bu esa soxta mahsulotlar va shubhali tarkibiy qismlarga ega tovarlardan himoyalanishga yordam beradi.

TO'LIQ SHAFFOFLIK

Qadoqdagi Data Matrix-kodni skanerlash orqali iste'molchi biologik faol qo'shimchaning fabrikadan to rastagacha bo'lgan yo'lini to'liq kuzatishi mumkin. U darhol quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi:

- mahsulot rasman mamlakatga import qilin-ganmi;
- uni kim va qachon ishlab chiqargan;
- qo'shimchaning qanday foydali xususiyatlari va yaroqlilik muddati bor.

Bundan tashqari, mahsulotga tegishli noyob kod tarkibida uni qanday qabul qilish bo'yicha ko'rsatmalar ham shifrlangan bo'ladi. Bu esa BFQni qaysi dozada va qanday davriylikda iste'mol qilish salomatlik uchun foydali ekanligini bilish imkonini beradi.

ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Agar mahsulot sifati talabga javob bermasa yoki mos kelmasa, markirovka uni qaytarish jarayoni ancha osonlashtiradi. Masalan, siz BFQlar sotib oldingiz, lekin u allergik reaksiya keltirib chiqardi yoki kutilgan ta'sirni bermadi.

Markirovkasiz iste'molchi sifati yoki kelib chiqishi noaniq mahsulot bo'yicha o'z haq-huquqini himoya qilishda qiyinchilikka duch keladi. Sababi mahsulot soxta bo'lishi, partiya yaroqsiz bo'lishi yoki u noqonuniy yo'llar orqali import qilingan bo'lishi mumkin.

Markirovka esa iste'molchilar huquqlarini himoya qilish uchun ishonchli dalillar va qonuniy vositalarni taqdim etadi.

BIZNES UCHUN IMTIYOZLAR

ISTE'MOLCHILAR ISHONCHI

Markirovka — bu davlat va nazorat qiluvchi organlar tomonidan tovarga qo'yiladigan sifat belgisi. Yuqori darajadagi himoyaga ega belgi esa uni yashashni deyarli imkonsiz qiladi.

Xaridor BFQ tekshiruvdan o'tgani va qadoqdagi barcha ma'lumotlarni o'qiy olishini ko'rsa, o'zini ishonchliroq his qiladi. Bu tovari sotib olish ehtimolini oshiradi, sotuvlarning o'sishiga va kompaniya imijiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

KONTRAFAKTGA QARSHI KURASH

Biologik faol qo'shimchalar bozori — soxtalashtirishga eng zaif bozorlardan biri.

Kontrafaktdan aziyat chekkanlar nafaqat iste'molchilar, balki qonunchilikka rioya qilib, tasdiqlangan qo'shimchalar bilan savdo qilgan, soliq va bojlarni to'lagan tadbirkorlar hamdir.

Raqamli markirovkaning joriy etilishi o'yin qoidalarini o'zgartiradi. Tovarning ishlab chiqarilishidan peshtaxtagacha bo'lgan butun yo'li tizimda qayd etilganligi sababli har qanday nosozlik yoki shubhali operatsiya ko'zga tashlanadi. Bu orqali qalbaki biologik faol qo'shimchalar endilikda qonuniy muomalaga kira olmaydi.

Barcha qo'shimchalarini ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilar uchun markirovka majburiy bo'lganida kontrafaktning rentabelligi keskin pasayadi. Oldin «soyada» faoliyat ko'rsatganlar yo qonuniylashishga yoki bozordan chiqishga majbur bo'ladi.

SOTUVNING YANGI BOSQICHI

Boshqa teng sharoitlarda iste'molchilar haqiqiyligi va sifatini osongina tekshirishi mumkin bo'lgan tovarlarga ko'proq ishonadi.

Xaridor qadoqda har qanday smartfon yordamida o'qilishi mumkin bo'lgan kodni ko'rganida, u BFQlar rasman ro'yxatdan o'tganini, mustaqil nazoratdan o'tganini va muammo yuzaga kelganda ishlab chiqaruvchi, sotuvchi hamda hatto tovar partiyasini aniqlash mumkinligini tushunadi.

Bu lotereyadan xarid qilishni ongli tanlovga aylanitiradi. Ongli tanlov esa iste'molchilar talabini kuchli rag'batlantiruvchi ishonchning asosidir.

NAZORAT VA HISOBOT BERISH OSONROQ

To'g'ri yondashilganda markirovka samarali biznes vositasiga aylanadi. Shu tariqa tadbirkor istalgan

vaqtida mahsulotining qayerda to'xtab qolganini kuzatishi, logistikadagi yo'qotishlar, o'g'irlik va yashirin sxemalarning oldini olishi, shuningdek, muammoli partiyani tezda aniqlashi mumkin.

Markirovka joriy etilishi bilan qoldiqlarni qo'l-da solishtirish, katta hajmdagi hisobotlarni tuzish, parallel jadvallar va dalolatnomalarini yuritish zarurati yo'qoladi. Tizim barchasini avtomatik ravishda bajaradi. U mahsulotlarning kirimi va chiqimini, omborlar o'rtafigi harakatini, ulgurji va chakana savdosini hamda utilizatsiya jarayonini qayd etadi.

HISOB-KITOBLARDAN REJALASHTIRISHGACHA


Raqamli markirovka — bu kuchli analitik vosita ham. Uning yordamida mahsulot harakatini kuzatish bilan birga quyidagi muhim ma'lumotlarni to'plash mumkin:

- qaysi mahsulotlar qaysi hududlarda yaxshiroq sotilmoqda;
- qaysi davrlarda talab yuqori bo'ladi;
- qaysi liniyalarni rivojlantirish va qaysilarini bozordan olib tashlash kerak.

Boshqacha qilib aytganda, markirovka biznes uchun **strategik rejorashtirishning samarali vositasidir**. U kompaniyalarga bozor talablariga moslashish, yangi mahsulot liniyalarini ishga tushirish, samarasiz pozitsiyalarini olib tashlashga va ishlayotganlarini kuchaytirishga yordam beradi.

Raqamli markirovkaning joriy etilishi O'zbekistondagi BFQlar bozorini yanada shaffof va xavfsiz qilishga xizmat qiladi. Iste'molchilar sifat va ishonch kafolatiga ega bo'lsa, tadbirdorlar o'sish va nazorat qilish vositasiga ega bo'ladi. Bu adolatli, zamonaviy va barqaror tizim sari tashlangan yana bir muhim qadamdir.

So'nggi bir yil ichida biologik faol qo'shimchalarni (BFQ) iste'mol qildingizmi yoki qilyapsizmi



- Ha, muntazam qabul qilaman (yil davomida doimiy ravishda ichaman)
- Ha, kurslar bo'yicha qabul qilaman
- Ha, mavsumiy qabul qilaman
- Ha, zarur bo'lsa qabul qilaman
- Yo'q, hech qachon qabul qilmaganman

Kursiv Research (CATI) ma'lumotlari. N=765 respondentlar Toshkent, Namangan, Samarqand, Andijon, Nukus, Buxoro, Qarshi, Qo'qon, Farg'on va Marg'ilon shaharlardan.

BFQLARNI ISHLAB CHIQARUVCHI VA IMPORT QILUVCHI O'ZBEKISTONLIKAR NIMA UCHUN RAQAMLI MARKIROVKANI TANLAMOQDA

2025-yil 1-martdan boshlab O'zbekistonda biologik faol qo'shimchalarni (BFQ) ixtiyoriy ravishda markirovkalash yo'lda qo'yildi. Mazkur loyiha kontrabanda, qalbakilashtirish va iste'molchilarini himoya qilishga qaratilgan. Ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilarning ishtiroti ixtiyoriy bo'lib, ushbu davrda markirovka kodlari bepul taqdim etiladi.

Biz O'zbekistonda biologik faol qo'shimchalarda raqamli markirovkalashni birinchilardan bo'lib joriy etayotgan kompaniyalar vakillari bilan suhbatalashdi. Ulardan ushbu loyihani nima sababdan qo'llab-quvvatlayotganlari va undan qanday afzalliklar ko'rayotganlari haqida so'radik.



STM Holding boshqaruvi hamkorasi **Inara Shaxanova**

O'zbekistonda BFQlar bozori qanday muammolarga duch kelmoqda?

— Asosiy muammo — ulkan yashirin bozor. Biz har kuni xaridorlar va mijozlarimizdan salbiy fikr-mulohazalarga duch kelamiz. Bunday holat davlatga ham, iste'molchiga ham zarar keltiradi. Budget g'aznasi kerakli bojlarni to'liq ololmayapti, xaridorlar esa zarur standartlarga rioya qilinmay ishlab chiqarilgan yoki import qilingan sifatsiz qo'shimchalarni sotib olishmoqda.

1-martdan boshlab O'zbekistonda BFQ-larni ixtiyoriy ravishda markirovka qilish boshlandi. Bu yangilikka qanday qaraysiz?

— Bu haqiqatan ham muhim qadam. Biz bu ta-shabbusni qo'llab-quvvatlashga tayyormiz, chunki bu mamlakat ichida kontrafakt ishlab chiqarish va O'zbekistonga noqonuniy mahsulotlar olib kirilishining oldini olishga yordam beradi.

Kompaniyamiz ushbu loyihaga qo'shilmoqda. Dori vositalarini markirovkalashda o'z vaqtida va birinchilar qatorida qatnashganimiz singari BFQ-larni markirovkalashda ham ilg'orlar safida bo'lish biz uchun katta sharafdir.

Markirovka joriy etilishi bilan iste'molchilar uchun nimalar o'zgaradi?

— Birinchidan, nazorat kuchaytiriladi. Har bir iste'molchi mahsulot qadog'idagi maxsus kodni skanerlab, Asl Belgisi mobil ilovasi orqali mahsulotning haqiqiyligini tekshirishi mumkin. Bu orqali iste'molchi xarid qilayotgan mahsulotning sifat va ishonchliligiga amin bo'ladi. Shuningdek,

mahsulotning O'zbekistonga barcha me'yor va tabablarga muvofiq ravishda ruxsat etilgan tartibda olib kirilgan, sertifikatlangan hamda asl mahsulot ekaniga ishonch hosil qilishi mumkin.

Sizning fikringizcha, kelajakda BFQlarni markirovkalashni majburiy qilish kerakmi?

— Ha, buni albatta qilish kerak. Va biz bu ta-shabbusni qo'llab-quvvatlaymiz. Rossiya tajribasi shuni ko'rsatadi, bu qadam bozorni ancha tozalash va uni yanada shaffofroq qilish imkonini berdi.



MERRYMED FARM MCHJ "Raqamli markirovka" loyihasi rahbari **Bahodir Mirzayev**

O'zbekistondagi BFQlar bozori dinamikasini qanday baholaysiz? Pandemiya davrida tahlilchilar ushbu mahsulotga bo'lgan talabning keskin oshganini qayd etdi. Raqobat hozir ham saqlanib qolganmi?

— O'zbekistondagi BFQlar bozori boshqa ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi izchil o'sishni namoyish etmoqda. Yangi ishlab chiqaruvchilar paydo bo'lmoxda, mahsulotlar assortimenti kengaymoqda, qo'shimchalarning mayjudligi oshmoqda. Iste'molchilar asosiy ratsionga qo'shimcha sifatida BFQlarga e'tibor bera boshladи.

O'zbekistonda 1-martdan boshlab BFQ-larni ixtiyoriy markirovkalash boshlandi. Bu yangilikka qanday qaraysiz?

— O'zbekistonda BFQlarni markirovkalashning joriy etilishi iste'molchilarga BFQlarning kelib chiqishi va tarkibi haqida ko'proq ma'lumot olish imkonini beradigan muhim qadamdir. Bu mahsulotga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, ixtiyoriy markirovkalash qalbakilashtirishga qarshi kurashda yordam beradi va xaridorlarni sifatsiz tovar sotib olishdan himoya qiladi.

Majburiy markirovkaning joriy etishdan oldin barcha jarayonlarni sinab ko'rish kerak. Shuning uchun ushbu bosqichda markirovkalash ixtiyoriy bo'ladi.

Iste'molchi uchun nima o'zgaradi?

— Shubhasiz, biologik faol qo'shimchalarni markirovkalashning joriy etilishi iste'molchiga foyda keltiradi. Raqamli markirovka ishlab chiqaruvchi, yaroqlilik muddati, tarkibi va boshqa muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu iste'molchiga asl mahsulotni sotib olayotganiga ishonch va ongli tanlov qilishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, raqamli markirovkalash tizimi soxta biologik faol qo'shimchalarning sotilishini qiyinlashtiradi, bu esa xaridorlarni sifatsiz mahsulotlar xarid qilishdan himoya qiladi.



Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi direktori Abdulla Azizov:

«RAQAMLI MARKIROV-KADAN ENG KATTA FOYDANI ISTE’MOLCHI KO’RADI»

2022-YILDAN BOSHLAB O’ZBEKISTONDA DORI VOSITALARINI RAQAMLI MARKIROVKALASH TIZIMI TATBIQ ETILMOQDA. BU TIZIM SOXTA MAHSULOTLARGA QARSHI KURASHISHDA MUHIM AHAMIYAT KASB ETIB, FARMATSEVTIKA BOZORIGA SEZILARLI TA’SIR KO’RSATMOQDA. DASTLABKI NATIJALAR, TIZIMNING SAMARADORLIGI HAMDA 2025-YILGA MO’LJALLANGAN REJALAR HAQIDA O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI FARMATSEVTIKA TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI DIREKTORI ABDULLA AZIZOV KURSIV UZBEKISTAN’GA BERGAN EKSPLYUZIV INTERVYUSIDA SO’ZLAB BERDI.

SVYATOSLAV POLYAKOV

— Abdulla Abdusalomovich, farmatsevtika sohasida raqamli markirovka tizimini joriy etishdan ko’zlangan asosiy maqsadlar nimalardan iborat?

— 2022-yil 1-sentabrdan boshlab dori vositalarini raqamli markirovkalash tizimi amaliyotga joriy etildi. Ushbu tizim avvalo aholining salomatligini himoya qilish kabi dolzarb va muhim vazifani o’z zimmasiga oladi.

Raqamli markirovkalash — bu ishlab chiqarish, import va mahsulot aylanmasini nazorat qilishga xizmat qiluvchi zamonaviy tizim. Xalqaro tajribada bu tizim Track & Trace deb ataladi. Uning yordamida har bir mahsulot birligi ishlab chiqarilgan sanasi va joyi, kimga jo’natilgani hamda qachon iste’molchiga sotilgani kabi barcha bosqichlar bo'yicha to'liq nazorat qilinadi.

Asl Belgisi raqamli markirovkalash tizimi ko’plab afzallik-larga ega. Ushbu tizim nafaqat davlat va biznes subyektlari uchun foydali, balki iste’molchilarga ham dori vositasini xarid qilishdan avval uning aslligiga ishonch hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Raqamli markirovkalash tizimining asosiy maqsadi — fuqarolarni xavfsiz va sifatlari dori vositalari bilan ta’minlash. Shaffof nazorat esa kontrafakt preparatlarining muomalaga kirib keli shiga yo’l qo’ymaydi.

Ushbu tizimidan eng katta foyda oluvchi aynan iste’molchi, chunki markirovka qilish jarayoni birinchi navbatda aholining hayoti va salomatligini himoya qilishga qaratilgan. Agar xaridor tovar haqida barcha zarur va qiziqarli ma’lumotlarni olish imkoniga ega bo’lsa, dorixonalarda sotilayotgan mahsulotlarning haqiqiyligiga nisbatan ishonch yanada ortadi.

Raqamli markirovkalash tizimi nafaqat jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi, balki iste’molchilarni kontrafakt yoki yaroqlilik muddati o’tgan mahsulotlardan himoya qilishga xizmat qiladi. Tovarlarni markirovkalash — bu sotib olinayotgan mahsulotning qonuniy, sifatlari va xavfsiz ekanligiga kafolatdir.

Oldin dori vositalari bilan bog'liq muammo yuzaga kelganda u yana bir muddat savdoda qolishi mumkin edi. Endilikda esa Asl Belgisi raqamli markirovkalash tizimi orqali dorilarning harakat yo'nalishini real vaqt rejimida kuzatish va qodabuzarlik aniqlanganda tegishli nazorat organlariga zudlik bilan xabar berish imkonim mavjud. Bu xardorlar salomatligini himoya qilish uchun muhim qadam. Ushbu chora-tadbirlarning barchasi aholi salomatligini himoya qilishga qaratilgan. Data Matrix kodini skanerlash va asl mahsulotni tanlash orqali inson o'zini va yaqinlarini himoya qilishi mumkin.

— O'zbekiston farmatsevtika bozori qanchalik rivojlanmoqda? Dori vositalarini ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilar ko'pincha qanday muammolarga duch kelmoqda? Raqamli markirovkalash ushbu zamonaviy muammolarni bartaraf etishda qanday yordam bermoqda?

— Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda global farmatsevtika bozorining 10–15 foizini qalbaki va kontrafakt dori vositalari tashkil etadi. Bu esa jiddiy muammo, chunki dori vositalari bevosita inson salomatligi bilan bog'liq hayotiy mahsulotlar hisoblanadi. Ayniqsa, antibiotiklar, og'riq qoldiruvchi vositalar, antigistamin preparatlar, shuningdek, hayot uchun xavfli holatlarni bartaraf etishga mo'ljallangan dori vositalari ko'p hollarda qalbakilashtirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hech bir dori turi soxtalashtirishdan to'liq himoyalanganmagan. Ammo soxta dorilarni asl mahsulotlardan farqlashing eng samarali va ishonchli usuli bu — raqamli markirovkalash tizimi.

— Farmatsevtika sohasida raqamli markirovkalash tizimining mavjud hisob va nazorat tizimlari bilan integratsiyasi qanday kechmoqda?

— Agentlik Asl Belgisi tizimi orqali dori vositalarining markirovkasi bo'yicha ma'lumotlarni qabul qiladi hamda ularni ro'yxatdan o'tkazish va referent narxlar to'g'risidagi axborotni uzatadi. Barcha integratsiya jarayonlari maxsus himoyalangan aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi.

— Farmatsevtika mahsulotlarining sifati va xavfsizligini oshirishda raqamli markirovkaning o'rni qanday?

— Raqamli markirovka joriy etilgan davr mobaynida ulgurji va chakana sotuvchilar bilan o'zaro hamkorlik mexanizmi ishlab chiqildi. Shuningdek, dori vositalarini kuzatish tizimi ham muvaffaqiyatlari ishga tushirildi. Endilikda har bir dori vositasining ishlab chiqaruvchidan to istemolchigacha bo'lgan yo'li to'liq kuzatish mumkin.

Preparatning haqiqiyligini bepul Asl Belgisi mobil ilovasi yordamida tekshirish mumkin. Ilovani telefonga yuklab olish va xarid qilishdan oldin dori vositasining raqamli markirovka kodini skanerlash kifoya.

Bu tizim istemolchilar, tadbirdorlik subyektlari va davlat uchun birdek foydalidir. Iste'molchilar endi xarid qilayotgan mahsulotlarning qonuniyligi va ularning sog'liq uchun xavfsizligiga shubha qilmaydi. Maxsus mobil ilova orqali istalgan fuqaro xariddan oldin mahsulotni tekshirishi va aniq-

langan noqonuniy holatlar bo'yicha xabar berishi mumkin. Ushbu ma'lumotlar bevosita nazorat organlariga uzatiladi.

Qonuniy ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilar tovarlarni raqamli markirovkalash tizimida ishtiroy etib, bozorda kontrafakt va kontrabanda ulushining kamayishi hisobiga daromadning o'sishi va raqobatbardoshlikning oshishiga erishmoqda.

Biznes subyektlari esa mavsumiylik, sotuqlar intensivligi va geografiyasi haqidagi dolzarb statistik ma'lumotlar asosida mahsulot harakatini kuzatib borish, yetkazib berish zanjirini va ombor zaxiralarini optimallashtirish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu esa logistika xarajatlarini kamaytirish, samaradorlikni oshirish va mehnat unumdarligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat miqyosida esa tovarlarni raqamli markirovkalash yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq va bojxona tushumlarini oshirish hamda tovar bozorlari ustidan samarali nazorat o'rnatish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

— Yangi yilning boshlanishi tovarlarni markirovkalash sohasidagi yangilik bilan boshlandi. 1-martdan boshlab biologik faol qo'shimchalarini (BFQ) ixtiyoriy ravishda markirovkalash bo'yicha tajriba loyihasi ishga tushirildi. Ushbu mahsulotlar bilan ishlayotgan, shuningdek, BFQlarni markirovkalash loyihasida ishtiroy etishni istagan ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilarga qanday tavsiyalar berasiz?

— Ma'lumki, bugungi kunda butun dunyo bo'y lab biologik faol qo'shimchalar bozori jadal rivojlanmoqda. Bu esa o'z navbatida ushbu bozorda sifatsiz va qalbaki mahsulotlar muammosini kungartibiga olib chiqadi. Shu nuqtayi nazardan, markirovkalash tizimi bu yo'nalishda ishonchli yechim sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda dori vositalarini markirovkalash jarayonini joriy etish bo'yicha katta tajriba to'plangan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich joriy etish zarur.

— Dori vositalari segmenti bo'yicha 2024-yil yakunlarini qanday baholaysiz?

— 2024-yil farmatsevtika sohasi uchun nihoyada samarali yil bo'ldi. Prezident **Shavkat Mirziyoyev** tomonidan sohaga oid bir qator farmon va qarorlar imzolandi hamda tegishli topshiriqlar berildi.

Xususan, quyidagi muhim yo'nalishlarda ishlar amalga oshirildi:

- «Zarur farmakologik nazorat amaliyoti — GVP» standartini joriy etish. Sog'lijni saqlash vazirligiga tibbiyot tizimining barcha bo'g'lnlari dan dori vositalarining nojo'ya ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish imkonini beruvchi elektron axborot tizimini yaratish topshiriqlari berildi;

- dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchi, shuningdek, ulgurji va chakana sotuvchi tashkilotlarda litsenziya talablariga rioya etishini nazorat qilish tartibi joriy etildi. Unga ko'ra, tekshiruvlar yiliga bir martadan ko'p bo'lmannan holda vakolatlari organni oldindan xabardor qilgan holda amalga oshiriladi;

- dori vositalarining postmarketing nazorati tizimini joriy etish.

Shu bilan birga, farmatsevtika tarmog'ida talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yangi investitsiya loyihalarini moliyalash-tirishni qo'llab-quvvatlash, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jaib qilish, ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda aholini sifatlari, samarali va arzon farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlash bora-sida izchil ishlar olib borildi. Mahalliy korxonalar da xalqaro standartlar va ilg'or amaliyotlarni joriy etish yo'nalishida ham faoliyat kengaytirildi. Jumladan, 2025–2030-yillar davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan, umumiy qiymati \$2 milliardlik investitsiya loyihalari portfeli shakllantirildi.

Shuningdek, Tashkent Pharma Park innovation ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasteri faoliyatini jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2024-yil oxirida ushbu klasterning ma'muriy binosini foydalanishga topshirish marosimi o'tkazildi. Mahalliy korxonalar qo'llab-quvvatlash maqsadida «Asakabank» AJ tomonidan ilg'or xorijiy texnologiyalarni jaib qilishga qaratilgan innovations dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ishlab chiqarish loyihalarini kredit va lizing mexanizmlari orqali moliyalashtirish uchun 4 yilgacha imtiyozi davr bilan 10 yil muddatga yillik 5 foiz stavkada \$50 million miqdorida kredit liniyasi ajratildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2024-yil yakunlari bo'yicha 5,1 trillion so'mlik farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilga nisbatan o'sish 113 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, umumiy qiymati \$180,1 millionlik mahsulot eksport qilindi.

— Joriy yilga farmatsevtika sohasining rivojlanishi bo'yicha qanday prognozlar bora?

— Sohada ishlar jadal davom etmoqda. 2025-yilga mo'ljallangan aniq maqsadlar va qadamlar amalga oshirilmoqda. Bunda davlat rahbarining yordamini e'tirof etmaslik mumkin emas. O'tgan yil oxirida O'zbekiston prezidentining tadbirdorlar bilan uchrashuvidan so'ng mahalliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 28.01.2025-yildagi «Farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-13-son farmoni imzolandi. Hujjatga ko'ra, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ular dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika, biologik faol qo'shimchalar, doriyor o'simliklar va kosmetika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyo, butlovchi qismlar, texnikalarni olib kirishda davlat bojini to'lashdan uch yil muddatga ozod qilindi. Shu bilan birga, farmatsevtika mahsulotlarini eksport qilish uchun xorijda davlat ro'yxatidan o'tgan korxonalariga ro'yxatdan o'tkazish xarajatlarini 50 foizdan 100 foizgacha qoplab berish, tarmoq korxonalariga agentlik buyurtmasiga asosan farmatsevtika yo'nalishidagi nufuzli xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda stendlar bilan ishtiroy etish xarajatlarini 100 foiz oldindan to'lab berish tartibi joriy etildi. Bularning barchasi davlat rahbarining sohaga qaratayotgan e'tibori tufayli amalga oshmoqda. Joriy yilda umumiy ishlab chiqarish hajmini 6,3 trillion so'mga, eksportni esa \$200 milliondan oshirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yanmiz.

XORIJIIY FARMATSEVTIKA KOMPANIYALARI

O‘zbekistonda
dorilarni markirovkalash
jarayoniga qanday
qo‘sildi

SVYATOSLAV POLYAKOV



«Xorijiy farmatsevtika kompaniyalari raqamli markirovkalash bo‘yicha avvalgi tajribasiga tayanib, O‘zbekistonda ishlab chiqarish jarayonlariga zarur o‘zgartirishlar kiritdi»

O'ZBEKISTONDA DORI VOSITALARI
VA TIBBIY BUYUMLARNI MAJBURIY
MARKIROVKA QILISH 2022-YIL
1-SENTABRDAN BOSHLANGAN.
BIROQ MAMLAQATDA FAOLIYAT
YURITAYOTGAN QATOR XORIJY
FARMATSEVTIKA KOMPANIYALARI
O'Z MAHSULOTLARINI TAJRIBA-
SINOV BOSQICHIDAYOQ
MARKIROVKALASHNI BOSHLAGAN
EDI. JARAYON DAVOMIDA ULR
QANDAY MUAMMOLARNI
YENGIB O'TDI VA AYNAN QAYSI
KEYSLAR MUVAFFAQIYATLI DEB
E'TIROF ETILMOQDA? BU HAQDA
KURSIV UZBEKISTAN XORIJY
FARMATSEVTIKA KOMPANIYALARI
VA ISHLAB CHIQARUVCHILARINING
O'ZBEKISTONDAGI
VAKOLATXONALARI ASSOTSIAZIYASI
DIREKTORI **MUHABBAT ASQAROVA**
BILAN SUHBATLASHDI.

— Muhabbat Akbarovna, xorijiy farmatsevtika kompaniyalari dori vositalarini raqamli markirovkalash talablariga javob berish uchun O'zbekistonda qanday muhim chora-larni amalga oshirdi?

— Assotsiatsiyaga a'zo xorijiy farmatsevtika kompaniyalari boshqa bozorlarda raqamli markirovkalash tizimlari bilan ishlash borasida yetarlicha tajribaga ega. Aynan shu tajriba ularga O'zbekistoning amaldagi talablariga tez moslashish imkonini berdi. Asosiy bosqichlar Asl belgisi milliy raqamli markirovkalash tizimida ro'yxatdan o'tish, noyob identifikatsiya kodlarini olish va ularni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etishni o'z ichiga oldi. Mahalliy talablarga rioya qilish hamda texnik jihatlarni muvoqiflashtirish maqsadida kompaniyalar CRPT TURON bilan muntazam hamkorlik olib bordi. Natijada integratsiya jarayoni sezilarli kechikishlarsiz amalga oshdi va xorijiy farmatsevtika kompaniyalari O'zbekistonga markirovkalangan mahsulotlarni yetkazib berishni o'z vaqtida boshlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

— Raqamli markirovkani joriy etish jarayonida mahalliy distribyutorlar va regulyatorlar bilan hamkorlik qanday ahamiyat kasb etdi?

— Raqamli markirovkalashni muvaffaqiyatlari joriy etishda mahalliy distribyutorlar va regulyatorlar bilan yaqin hamkorlik muhim rol o'ynadi. CRPT TURON Farmatsevtika tarmog'ini rivojlan-tirish agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi bilan birgalikda seminarlar va amaliy uchrashuvlar tashkil etdi. Bu uchrashuvlarda markirovkalashning texnik va huquqiy jihatlari atrofli-cha muhokama qilindi, yagona yondashuvlar ishlab

chiqildi va dolzarb masalalar yuzasidan amaliy ye-chimlar topildi. Shu yondashuv tufayli kompaniyalar qonunchilikdagi yangiliklardan xabardor bo'lib, yan-gi talablarga o'z vaqtida va puxta tayyorgarlik bilan moslashishga erishdi.

— **Xorijiy farmatsevtika kompaniyalari ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli markirovka-lash talablariga qanday moslashtirdi?**

— Xorijiy farmatsevtika kompaniyalari raqamli markirovkalash bo'yicha avvalgi tajribasiga tayanib, O'zbekistonda ishlab chiqarish jarayonlariga zarur o'zgartirishlar kiritdi. Ular mahalliy me'yorlarga mos keladigan Data Matrix-kodlarini joriy etish va tek-shirish uchun zamonaviy uskunalardan foydalanishni boshladи. Shuningdek, markirovkaning aniqligi va o'qilishi kafolatlanishi uchun sifat nazorati yanada kuchaytirildi. Ishlab chiqarish liniyalariga real vaqt rejimidagi monitoring tizimlari joriy etildi, munta-zam tekshiruvlar orqali esa jarayonning uzluksizligi, xalqaro standartlar hamda milliy talablar bilan mu-voqifligi ta'minlandi.

— **Xorijiy kompaniyalar qanday qiyinchilik-larga duch keldi?**

— Asosiy qiyinchiliklar mahalliy normativ bazani o'zlashtirish va O'zbekistoning o'ziga xos talabla-riга moslashish bosqichida yuzaga keldi. Tartibga solishdagi farqlar, mahalliy standartlar va tartib-qoidalarga rioya qilish zarurati, ayniqsa, ilgari mam-lakatda faoliyat yuritmagan kompaniyalar uchun qiyinchilik tug'dirdi.

Misol uchun, elektron raqamli imzo (ERI) olishda qiyinchiliklar yuzaga kelardi. Agar chet el kom-paniyasining O'zbekistonda vakolatxonasi bo'lmasa va ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasining egasi chet eldag'i, masalan, Yevropadagi biror mamlakatdagi

bosh ofis bo'lsa, o'sha mamlakatdagi vakolatli shaxs-ga ERI rasmiylashtirishga to'g'ri kelardi.

Assotsiatsiyaning farmatsevtika tarmog'ini rivoj-lantirish agentligi, Soliq qo'mitasi, CRPT TURON, Tashqi ishlар vazirligi bilan hamkorligi natijasida sa-marali mexanizm ishlab chiqildi. Natijada chet ellik-lar belgilangan milliy tartib-qoidalarga rioya qilgan holda ERI olishlari mumkin, bu esa markirovkalash tizimiga to'liq qo'shilish imkonini berdi.

Xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarining raqamli markirovkalash xizmatlari uchun to'lovlarni milliy valyutada amalga oshirishi bo'yicha normati-v-huquqiy bazada ruxsat mayjud emasligi yana bir muammo sifatida yuzaga chiqqan. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining vakolatxonalarini akkre-ditatsiya qilish tartibini belgilovchi avvalgi qarorida bunday imkoniyat ko'zda tutilmagan edi. Assotsiat-siya, CRPT TURON hamda tegishli davlat organ-larining hamkorlikdagi sa'y-harakatlari natijasida ushbu qarorga o'zgartirishlar kiritildi. Bu esa mayjud huquqiy noaniqlikni bartaraf etib, xorijiy vakolatxo-nalarning raqamli markirovkalash tizimidagi to'liq ishtirokini ta'minladi.

Shuningdek, markirovkalash to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatishda ma'lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'shim-cha chora-tadbirlar talab etildi. Dastlabki bosqichda ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtasida muvoqiflash-tirishda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Ushbu muammolar ishlab chiqaruvchidan tortib tartibga soluv-chigacha bo'lgan har bir shaxs shaffof va samarali raqamli markirovkalash tizimini yaratishda muhim rol o'ynaydigan barqaror o'zaro ta'sir modelini yara-tishga turtki bo'ldi.

— **Xorijiy kompaniyalar tajribasida raqamli markirovkani joriy etish bo'yicha qanday muvaffaqiyatli misollarni keltirish mumkin?**

— Assotsiatsiyamiz tarkibiga kiruvchi xalqaro farmatsevtika kompaniyalari O'zbekistonda raqamli markirovkani muvaffaqiyatlari joriy etish bo'yicha bir qator misollarni taqdim etmoqda. Novo Nordisk, Gedeon Richter, Berlin-Chemie va boshqa ishlab chiqaruvchilar birinchilar qatorida ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlab, CRPT TURON bilan hamkorlikda pilot loyihalarda ishtirok etdi. Ularning faolligi va xalqaro tajribasi asosiy integratsiya jarayonlarini yo'nga qo'yish, shuningdek, texnik hamda huquqiy muammolarni aniqlash va bartaraf etishda muhim rol o'ynadi. Natijada boshqa kompaniyalar uchun majburiy markirovkaza o'tish ancha osonlashdi va ti-zimning barqaror ishga tushirilishi ta'minlandi.

Seriyalashtirish va agregatsiyalashning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish kompaniyalarga nafaqat regulyatorlar talablarini bajarishga, balki ichki jarayonlarning shaffofligini oshirishga ham xizmat qildi. Bu esa o'z navbatida iste'molchilar va hamkorlar ishonchini mustahkamladi. Bu misollar shuni ko'r-satadiki, davlat bilan samarali muvoqiflashtirish, operatorning faol qo'llab-quvvatlashi va biznes va-killarining ishtiroki orqali raqamli markirovkanani nafaqat rasman, balki amalda butun sog'liqni saq-lash tizimi uchun real foyda keltiradigan tarzda joriy etish mumkin.

Assotsiatsiyamiz bundan keyin ham tizimni rivojlan-tirish, uning barqaror ishlashini ta'minlash va bozorning shaffofligini qo'llab-quvvatlashda faol ish-tirok etishda davom etadi. Oldinda esa moslashuv-chanalik va ochiq muloqotni talab qiladigan yangi bosqich turibdi. Assotsiatsiya bu jarayonda ishonchli hamkor bo'lib qolishga tayyor.

«Assotsiatsiyamiz tarki-biga kiruvchi xalqaro farmatsevtika kompaniyalari O'zbekistonda raqamli markirovkani muvaffaqiyatlari joriy etish bo'yicha bir qator misollarni taqdim etmoqda. Novo Nordisk, Gedeon Richter, Berlin-Chemie va boshqa ishlab chiqaruvchilar birinchilar qatorida ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlab, CRPT TURON bilan hamkorlikda pilot loyihalarda ishtirok etdi»

QOIDALARGA ASOSLANGAN O'YIN

Raqamli markirovka alkogolsiz ichimliklar bozorini qanchalik o'zgartirmoqda



DARYA BARAKINA

ICHIMLIKLARNI RAQAMLI MARKIROVKA QILISH XARIDORLARGA SIFATLI MAHSULOTNI KONTRAFAKTDAN AJRATISHGA, BIZNES VAKILLARIGAESA MAHSULOT HARAKATINI KUZATIB BORISH HAMDA AMALDAGI STANDARTLARGA RIOYA QILISHDA YORDAM BERMOQDA. BU TIZIM ISHLAB CHIQARUVCHILAR UCHUN HALOL RAQOBAT MUHITINI YARATISH, INVESTITSIYALARNI JALB QILISH IMKONINI BERADI. KURSIV UZBEKISTAN ENERGY DRINKS ASSOCIATION YURIDIK SHAXSLAR UYUSHMASI IJROCHI DIREKTORI MIRPAYOZ MIRSAATOV BILAN SUHBATLASHDI. U MARKIROVKALASH SANOATGA QANDAY TA'SIR QILISHI VA TIZIM YANADA SAMARALIROQ BO'LISHI UCHUN NIMALARNI O'ZGARTIRISH KERAKLIGI HAQIDA SO'ZLAB BERDI.

Nima uchun raqamli markirovka ENERGY DRINKS ASSOCIATION uchun dolzarb masalaga aylandi?

— Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-noyabrdagi «Suv va salqin ichimliklarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to'g'risida»gi 631-son qaroriga muvofiq, suv va salqin ichimliklarni ishlab chiqarish, olib kirish va hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish, ularning tovar aylanmasini ta'minlash maqsadida raqamli markirovkalash joriy etilmoqda. Assosiatсиya a'zolari qonunlarga amal qiluvchi, taniqli va ishonchli brendlар hisoblanadi. Raqamli markirovka ularning ishlab chiqarish hamda logistika tizimlariга qoshimcha investitsiyalar jalb qilish imkonini yaratadi. Biroq bu kabi mas'uliyatlari yondashuv bilan ishlaydigan kompaniyalar ushbu talablarga ryoja qilmaydigan ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchilar bilan teng raqobat sharoitida noqulay holatga tushib qolmoqda. Oddiy xaridorlar ko'pincha raqamli markirovka nima uchun kerakligi va u qanday afzalliklarga ega ekanini tushunmaydi, masalan, tovarning sifati va haqiqiyligini tasdiqlashda. Biz esa aholining markirovkalangan mahsulotlarni tanlash zaruriyatini chuqurroq tushunishi uchun faol ishlash muhim deb hisoblaymiz. Qalbaki mahsulotlar odatda xavfsizlik standartlarini buzib, arzon materiallardan tayyorlanadi. Bunday mahsulotlarni iste'mol qilish sog'liq uchun jiddiy xavf tug'diradi. Turli kasalliklar va holsizlikka sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, qalbaki mahsulotlar butun ichimliklar sohasining obro'siga salbyi ta'sir ko'rsatadi.

— Energetik ichimliklar sanoatida raqamli markirovkalashning kelajagini qanday tasavvur qilasiz? Yaqin yillarda qanday o'zgarishlar kutilmoqda?

— O'zbekistonning savdo hamkorlari bilan unifikatsiyalangan [DA1] raqamli markirovkani ko'rishni istardik. Bu «Dori-darmon vositalari» tovar guruhi markirovkasining o'zaro e'tirof etilishi ga o'xshash tarzda bo'lishi lozim. Hozirgi vaqtida O'zbekiston, Qirg'iziston, Rossiya, Ozarbayjon, Armanistonda raqamli markirovkalash formati ko'plab farqlarga ega bo'lib, bu ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar uchun bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Standartlarni uyg'unlashtirish juda samarali bo'ladi. Iste'molchilar tovarlardagi raqamli markirovkaning mayjud bo'lishini talab qilishga haqli, chunki ular jamoatchilik nazoratining muhim ishtirokchilari hisoblanadi. Quvonarlisi shundaki, so'nggi vaqtarda mamlakat aholisi yana-da xabardor, talabchan bo'lib bormoqda. Xaridorlar aynan nima sotib olayotganini, mahsulot qayerdan kelganini, uning xavfsizlik darajasi qandayligini bilishni xohlashmoqda. Bu esa ularning hayoti va sog'lig'i uchun muhim omil hisoblanadi.


— Energetik ichimliklarga nisbatan iste'molchilar ishonchining ortishida raqamli markirovkaning orni qanday?

— Iste'molchi Asl Belgisi mobil ilovasi orqali markirovka kodini skannerlab, mahsulot haqidagi barcha kerakli ma'lumotlarni olishi mumkin. Bu ularga mahsulotning haqiqiyligi, uning sifati va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha amaldagi talablarga muvofiqligiga ishlonch hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, bu orqali asl mahsulotni qalbakisidan farqlab, ongli va to'g'ri tanlov qilish osonlashadi. Qadoqda raqamli markirovkaning mayjudligi esa ishlab chiqaruvchining ishlonchli, sifatlari va xavfsiz mahsulot yetkazib beruvchi sifatidagi obro'sini mustahkamlaydi. Mamlakat fuqarolarini uchun esa raqamli markirovka xarid qilinayotgan tovarning qonuniy va sifatlari ekanligining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

SVYATOSLAV POLYAKOV

MARKIROVKA ISHONCH VOSITASI:

O'zbekistonda tovarlarni raqamli himoya qilishda kim yetakchilik qilmoqda



TAMAKI FABRIKALARI, FARMATSEVTIKA KOMPANIYALARI VA MAISHIY TEXNIKA ISHLAB CHIQARUVCHILARI ALLAQACHON DATA MATRIX-KODLARINI KIRITISHNING YANGI TEKNOLOGIYALARINI FAOL JORIY ETDI. 2025-YIL FEVRAL OYIDAN BOSHLAB ESA MAJBURIY MARKIROVKALASH TIBBIY BUYUMLARGA HAM TA'SIR KO'RSATDI. DASTLABKI NATIJALAR QANDAY BO'LGANI, MARKIROVKALASHDA KIM FLAGMAN VA BOZORNI SHAFFOFLASHTIRISHDA ISTE'MOLCHILARNING QANDAY ROL O'YNASHI HAQIDA CRPT TURON RIVOJ-LANISH BO'YICHA BOSH MENEDJER DIYOR RASULEV SO'ZLAB BERDI.

FARMATSEVTIKA VA TAMAKI — RAQAMLASHTIRISHDA PESHQADAMLARDAN

— Diyor, ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilarning markirovka tizimini turli tovar guruhlari kesimida joriy etishga tayyorlik darajasini qanday baholaysiz? Ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning eng faol munosabati qaysi segmentlarda kuzatildi?

— Majburiy markirovkalashni joriy etishdan oldin har doim sinov loyihasi o'tkaziladi. Uning asosiy vazifasi bozordagi vaziyatni va ishlab chiqaruvchilar hamda boshqa bozor ishtirokchilarining raqamli markirovkani joriy etishga tayyorligini baholashdan iboratdir.

O'zbekistonda raqamli markirovkalashni joriy etishda yuqori ishlab chiqarish madaniyatiga ega bo'lgan, shuningdek, Traceability va Track & Trace kabi tushunchalar bilan yaxshi tanish tamaki ishlab chiqaruvchilari, qalbaki va ochiqdan-ochiq soxta mahsulotlarga qarshi kurashishda katta kuch sarflayotgan dori vositalari ishlab chiqaruvchilari eng faol munosabatni bildirdi.

Dori ishlab chiqaruvchilari, ayniqsa, xorijiy ishlab chiqaruvchilar uchun raqamli markirovkalash yangilik emas: bunday tizim Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Rossiya, Turkiya va boshqa ko'plab mamlakatlarda joriy etilib, muvaffaqiyatli ishlamoqda. Markirovkalash aholini sifatsiz va qalbaki mahsulotlardan samarali himoya qilish imkonini beradi.

HAJM VA ISHTIROKCHILAR BO'YICHA YETAKCHILAR: 2024-YIL YAKUNLARI

— 2024-yil yakunlariga ko'ra, ishlab chiqarish va import hajmi, berilgan kodlar soni hamda ro'yxatdan o'tgan tovar aylanmasi ishtirokchilari soni bo'yicha qaysi tovar guruhlari flagman hisoblanadi?

— Bugungi kunda raqamli markirovkalash oltita tovar guruhini qamrab olgan: tamaki mahsulotlari, alkogol, pivo, dori, maishiy texnika hamda suv va salqin ichimliklar.

Tovar aylanmasi ishtirokchilarining eng ko'p soni maishiy texnikaga to'g'ri keladi, bu yerda 10 ming-dan ortiq tadbirkorlik subyekti ro'yxatdan o'tgan. Markirovkalangan tovarlarni ishlab chiqarish va import qilishning eng yuqori hajmi esa dori vositalari, shuningdek, ichimliklarga to'g'ri keladi.

KONTRAFAKTGA QARSHI LAZER

— Data Matrix kodlarini qo'llashning aniqligi va ishonchliligin ta'minlash uchun qanday innovatsion texnologiyalar foydalanilmoqda? Mahsulotlarga markirovka kodlarini qo'yishning yangi usullaridan muvaffaqiyatlari tibbiy etilganlariga misol keltira olasizmi?

— Raqamli markirovkalash texnologiyalari (Data Matrix-kodlar) ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda doimiy takomillashtirib borilmoqda. Hozirda markirovkalashning eng ilg'or usullaridan biri lazerli bosma texnologiyadir. Unda Data Matrix-kodlar mahsulot qadoqlari yuzasiga lazer yordamida «kuydiriladi». Bu usul yuqori samaradorlik, kodning chidamliligi va ishonchliligin ta'minlaydi. Shu bilan birga, markirovkaning oson o'qilishi mahsulot saqlanish muddati davomida kafolatlanadi.

Mazkur texnologiyani ilk bor tamaki ishlab chiqaruvchi korxonalar qo'llay boshlagan bo'lsa, bugungi kunda suv va salqin ichimliklar ishlab chiqaruvchilari ham uni faol joriy etmoqda. Amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, lazerli bosish alyuminiy idishlarda mahsulotlar uchun juda qulay: kod bevosita alyuminiy idish qopqog'iga «kuydiriladi».

Lazerli markirovkalash texnologiyasi EURASIA BOTTLERS zavodida ham muvaffaqiyatli joriy etildi. Bu yerda Flash Up brendi ostida tetiklashtiruvchi ichimliklar ishlab chiqariladi.

TIBBIY BUYUMLARNING RAQAMLI YO'LI

— 2025-yil 1-fevraldan boshlab tibbiyot buyumlarini majburiy markirovkalash joriy etildi. Sizningcha, ushbu yangilik qanday o'zgarishlarga olib keladi? Bu holat tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarishni monitoring qilish hamda davolash muassasalariga dori yetkazib berish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

— Tibbiy buyumlarni markirovkalash qalbaki lashtirishdan himoya qilish uchun zarur, chunki bu ularning ishlab chiqarilishi va harakatlanishini oxirgi realizatsiya yoki tibbiyot muassasalarida qollanilishigacha kuzatish imkonini beradi.

Tibbiy buyumlar dori vositalari kabi ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar bo'lib, ularning samaradorligi va xavfsizligi nafaqat hokimiyat organlarini, balki oddiy fuqarolarni ham tashvishga soladi. Raqamli markirovkalash mahsulotlarni ishlab chiqarish, fuqarolik muomalasiga kiritish, sertifikatlash jaryonlari, sifat nazorati va mamlakat bozoriga qonuniy asosda yetkazib berishni tizimli nazorat qilish imkonini beradi.

Shuningdek, bu tizim bozordagi tovar qoldiqlari bo'yicha holatni tahlil qilish, tibbiyot muassasalarida monitoring o'tkazish, zarurat tug'ilganda esa muayan turdag'i dori vositalari va tibbiy buyumlar yetkazib berish hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Ishdagi

O'ZBEKISTONDA SALQIN
ICHIMLIKLARNI MARKIROVKALASHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYA QANDAY
QO'LLANILMOQDA



DARYA BARAKINA

«Biz texnologik yechimni ishlab chiqdik, chunki markirovkalash uskunalarini ishlab chiqarish liniyasiga o'rnatishning imkoniy yo'qligini darhol tushundik. Bu jarayon alohida tashkil etilishi kerak, chunki ishlab chiqarish rejimida bankani kalit-halqaga aniq tushadigan darajada barqaror holatda ushlab turishning iloji yo'q»



2024-yil 1-martdan O'zbekistonda salqin ichimliklarga raqamli markirovkan qo'llash majburiy bo'ldi. Bu iste'molchi uchun tovar sifatini kafolatlaydi va qalbaki mahsulotlarga qarshi kurashishda yordam beradi.

Bunday mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar ichimlik solingan bankalarga zarur Data Matrix kodini qo'yish masalasini turli usullar orqali hal qilmoqda. Masalan, EURASIA BOTTLERS kompaniyasi O'zbekiston bozori uchun innovatsion bo'lgan laserli markirovkalash texnologiyasidan foydalansmoqda. Ushbu tizimning ishlash jarayonini yaqindan ko'rish maqsadida biz korxonaga tashrif buyurdik.

Toshkentda joylashgan EURASIA BOTTLERS zavodida Flash Up ichimligi ishlab chiqariladi. Korxona yiliga 100 milliondan ortiq banka ichimlik ishlab chiqarish qvvatiga ega. Amaldagi O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, ushbu mahsulotlarning barchasi majburiy tartibda markirovka qilinishi lozim.

Biroq alyuminiy idishdagi ichimliklarni sifatli markirovkalash tashqaridan ko'ringanidek oson emas. Data Matrix kodi idishningyuqori qismida joylashgan kalit-halqaga joylashtirilishi kerak. Ishlab chiqarish liniyasi bo'ylab harakatlanish jarayonida idishlarning holati o'zgarishi mumkin, bu esa belgilarning notog'ri qo'yilishi xavfini oshiradi.

Ushbu masalani hal etish maqsadida kompaniya laserli markirovkalash texnologiyasini yaratgan va bu jarayon uchun uskunalarini yetkazib beruvchi «Kallisto» kompaniyasi bilan hamkorlikni yo'nga qo'yan.

«Biz texnologik yechimni ishlab chiqdik, chunki markirovkalash uskunalarini ishlab chiqarish liniyasiga o'rnatishning imkoniy yo'qligini darhol tushundik. Bu jarayon alohida tashkil etilishi kerak, chunki ishlab chiqarish rejimida bankani kalit-halqaga aniq tushadigan darajada barqaror holatda ushlab turishning iloji yo'q», — deydi «Kallisto» bosh direktori Pavel Bulgakov taklif etilgan konsepsiya haqida.

lazer

Natijada korxonada ichimliklar uchun alohida banka qopqoqlarini markirovkalash zonasini tashkil etildi. Ushbu uskuna soatiga 80 ming tagacha belgi qo'yish qvvatiga ega.

O'zbekistondan tashqari, kompaniya ishlasmalari Rossiya korxonalarida ham qo'llanilmoqda. Ammo mamlakatda bunday lazerli markirovkalash texnologiyasi hozircha faqat EURASIA BOTTLERS tomonidan ishlatilmoqda.

O'zbekistonda raqamli markirovkalash tizimini yaratish, joriy etish va rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan CRPT TURON tashkiloti ichimliklarni lazerli markirovkalash texnologiyasi orqali belgilashning afzalliklariga alohida e'tibor qaratishni tavsiya etadi. Mazkur talab o'tgan yilning 1-avgustidan boshlab majburiy tartibda kuchga kirgan bo'lsa-da, texnologiyani amaliyotga joriy etish jarayoni boshqa tovar guruhlariga nisbatan murakkabroq kechdi.

«Bu holat mahsulotning form-faktorlari bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqaruvchilardan moslashishni hamda markirovkalashning eng maqbul usulini tanlashni talab qildi», — deyta ta'kidladi CRPT TURON'ning «Suv va salqin ichimliklar» tovar guruhi menejeri Dilso'z Akrojonova.

Uning qo'shimcha qilishicha, 2025-yilning birinchi choragida alyuminiy idishlardagi 130 milliondan ortiq mahsulot raqamli belgi bilan markirovka qilingan. CRPT TURON bu ko'rsatkichni mahalliy suv va salqin ichimliklar ishlab chiqaruvchilari keng ko'lamli markirovkalash jarayoniga tayyor ekanligining yaqqol dalili sifatida baholamoqda.

Shuningdek, tashkilot vakili 2025-yil 1-maydan boshlab O'zbekistonda elektron hisobvaraqturalarda markirovka kodlarini ko'rsatish talabi kuchga kirishini eslatdi. Mazkur yangiliklar bozorning shaffofligini oshirishi, shu bilan birga, iste'molchilarni qalbaki mahsulotlardan himoya qilishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda.

SOXTA MAHSULOTSIZ KELAJAK:

iste'molchilar mamlakat bozoriga qanday ta'sir qilishi mumkin

BUGUNGI BOZOR TURLI XIL SIFATLI MAHSULOTLAR BILAN TO'LIB-TOSHGAN VA MAHSULOTNING HAQIQIYLIGI MASALASI TOBORA DOLZARB BO'LIB BORMOQDA. KONTRAFAKT NAFAQAT BRENDLARGA BO'LGAN ISHONCHNI PASAYTIRADI, BALKI ISTE'MOLCHILAR SALOMATLIGIGA REAL TAHDID SOLISHI MUMKIN. USHBU VAZIYATDA HAR BIR XARIDORGА MAHSULOTNING QONUNIYLIGI VA KELIB CHIQISHINI MUSTAQIL RAVISHDA TEKSHIRISH IMKONINI BERUVCHI MAHSULOTLARNI RAQAMLI MARKIROVKALASH ALOHIDA ROL O'YNAYDI.

O'zbekistonda Asl Belgisi tizimi bu sohadagi asosiy vositaga aylandi. U iste'molchilarga qadoqdagi Data Matrix-kodni skanerlash orqali mahsulot haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Bu shuni anglatadiki, xaridor dori vositalari, ichimliklar, maishiy texnika va boshqa tovarlarning haqiqiyligiga faqatgina sotuvchining tasdig'iiga ko'rva emas, balki sotib olishdan oldin o'zi ishonch hosil qilishi mumkin.

JAMOATCHILIK NAZORATI QANDAY ISHLAYDI?

Asl Belgisi tizimi tekshiruv jarayonini shaffof va tushunarli qiladi. Mobil ilovada kodni skanerlagandan so'ng (Android/iOS) mahsulot haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish mumkin: uning ishlab chiqaruvchisi, chiqarilgan sanasi, yaroqlilik muddati, tarkibi va hatto majburiy sertifikatlarning mavjudligi. Agar qadoq va ilovadagi ma'lumotlar bir-biridan farq qilsa yoki skanerlash natijasi shubhali bo'lsa, iste'molchi bu haqda xabar berishi mumkin. Buning uchun ilovadagi «Qoidabuzarlik haqida xabar berish» tugmasini bosish va muammoni tavsiflash kifoya.

Aslida bu jamoatchilik nazoratining yangi shaklini yaratadi, bunda xaridorning o'zi noqonuniy mahsulotlarga qarshi kurash jarayonining ishtirochisiga aylanadi. Odamlar tizimdan qanchalik ko'p foydalansa, qalbaki mahsulot aylanmasi shunchalik murakkablashadi va bozorda tovarlar sifatiga bo'lgan talab shunchalik yuqori bo'ladi.

YANGI ISTE'MOL ODATI QANDAY SHAKLLANADI?

So'nggi yillarda Asl Belgisi mobil ilovasidan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda, bu esa fuqarolarning tovarlarni tekshirish muhimligi haqidagi xabardorligi oshganidan dalolat beradi. 2024-yil oxiriga kelib, ilova 785 ming marta o'rnatildi. Bu yangi iste'mol odatining shakllanishini ko'rsatadi: odamlar sotib olayotgan narsasiga ishonch hosil qilishni xohlashadi.

Bundan tashqari, markirovka nafaqt oddiy fuqarolar, balki biznes uchun ham foydalidir. Asl Belgisi Business maxsus ilovasi tadbirdorlarga tovarlarning haqiqiyligini tekshirishda va kontrafakt yetkazib berishdan himoyalanishda yordam beradi.



NIMA UCHUN BU MUHIM?

Raqamli markirovka va jamoatchilik nazorati shunchaki qalbaki mahsulotdan himoyalanish usuli emas, balki bozorni o'zgartiruvchi vositadir. Xaridlar mahsulotni muntazam tekshirib turganda, do'konlar va ishlab chiqaruvchilar shaffofroq sharoitda ishlashga majbur bo'ladi, «yashirin» biznes esa sotish imkoniyatini yo'qotadi.

Kodlarni skanerlaydigan va muammollar haqida xabar beradigan iste'molchilar quydagilarni ta'minlaydigan tizimning bir qismiga aylanadi:

- shaffoflik — mahsulot va uning kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarga kirish;
- xavfsizlik — kontrafakt sotib olish xavfini kamaytirish;
- sifat nazorati — buzilishlar haqida tezkor xabar berish imkoniyati.

Natijada raqamli markirovka nafaqt nazorat mehanizmiga, balki mas'uliyatli iste'molni rivojlan Tirishning muhim qismiga aylanadi. Va bu tizimda xaridolarning o'zları hal qiluvchi rol o'ynaydi — ular tekshirilgan mahsulotni tanlaydi va qalbaki mahsulotlarsiz bozor yaratishga yordam beradi.

ASL BELGISI ILOVASI:

YELENA KIM

NIMALARNI BILISH VA UNDAN QANDAY FOYDALANISH KERAK

Asl Belgisi — bu iste'molchidan tortib Soliq qo'mitasi xodimigacha foydalanishi mumkin bo'lgan raqamli vosita. Platforma tovar aylanmasini kuzatishga yordam beradi, bu esa biznes va nazorat organlarining ma'lumot toplashdagi ishini sezilarli darajada osonlashtiradi, shuningdek, foydalanuvchilarga sotib olingan mahsulotlarning sifatiga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Asl Belgisi ilovasining funksiyalari doimiy ravishda kengayib bormoqda. So'nggi versiyada Asl Belgisi ilovasi foydalanuvchilar uchun yanada qulayroq bo'lib, dizayni butunlay yangilandi. Turli bo'limlar bo'yicha navigatsiyalar qo'shildi. Endilikda dori nomi va qadoqni skanerlash orqali qidirish mumkin. Bu kerakli dorini tezda topish va barcha asosiy ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Natijalarda quyidagilar aks etadi:

- belgilangan normativlarga muvofiq preparatning yo'l qo'yiladigan eng yuqori narxi;

- shahar dorixonalaridagi narxlar diapazoni foydalanuvchiga eng foydali taklifni tanlash imkoniyatini beradi.

Shuningdek, har bir dori kartasida PDF formatida qo'llash bo'yicha ko'rsatma qo'shildi. Uni to'g'ridan to'g'ri ilovada ko'rish yoki qurilmaga yuklab olish mumkin.

Ushbu funksiyalar Asl Belgisini o'z sog'lig'i-ga g'amxo'rlik qiladigan va sotib olinayotgan mahsulotning sifati va haqiqiyligiga ishonch hosil qilishni istaganlar uchun yanada foydalı vositaga aylantiradi.

ASL BELGISI QANDAY ILOVA?


Asl Belgisi tovarlarning haqiqiyligini tekshirish hamda ularning O'zbekiston hududida qonuniy muomalada ekanligini aniqlash imkonini beruvchi mobil ilova. Ilova yordamida tovar qadoqlaridagi

ASL BELGISI — BU ISHLAB CHIQARISHDAN TO SOTISHGACHA BO'LGAN BARCHA BOSQICHLARDA TOVARLAR HARAKATINI NAZORAT QILISH IMKONINI BERADIGAN TIZIM. U TOVAR AYLANMASINI SHAFFOFLASHTIRISHGA, KONTRAFAKT XAVFINI KAMAYTIRISHGA VA ISTE'MOLCHILAR MANFAATLARINI HIMoya QILISHGA YORDAM BERADI.



Data Matrix-kodlarni skanerlash orqali mahsulotning rasmiy markirovkadan o'tgan-o'tmaganligi, ishlab chiqaruvchisi, ishlab chiqarilgan sanasi hamda amaldagi me'yorlarga muvofiqligi haqida ma'lumot olish mumkin.

Asl Belgisi ilovasi xaridorlarga O'zbekiston huddiga qonuniy ravishda olib kirilgan, asl va sertifikatlangan mahsulotlarni qalbaki yoki kontrafakt mahsulotlardan farqlashda ishonchli yordamchi bo'lib xizmat qiladi.



ASL BELGISI ILOVASIDAN QANDAY FOYDALANILADI?

Asl Belgisi mobil ilovasi bepul bo'lib, mamlakatning barcha fuqarolari va mehmonlari uchun ochiq. Ilovani birinchi marta ishga tushirayotganingizda o'zingizga qulay tilni tanlang (istalgan vaqtida bu sozlamalarni o'zgartirish mumkin). So'ng foydalanuvchi kelishuvi bilan tanishib chiqing va shartlarga rozilik bildiring.

Shundan keyin ilova sizdan telefon raqamingizni kiritishni so'raydi. Ushbu raqamga maxsus SMS-kod yuboriladi va uni tegishli maydonga kriting hamda ro'yxatdan o'tishni yakunlang. Keyingi bosqichda shaxsiy profilingizni to'ldiring: ismingiz, jinsingiz va tug'ilgan sanangizni ko'rsating. Keyin siz ilovaning barcha funksiyalaridan foydalanishingiz, shuningdek, skannerlash tarixini ko'rib chiqishingiz mumkin.

Ro'yxatdan o'tgach, ilovaning bosh ekraniga o'tasiz. Ekranning pastki qismida markazda skanner belgisi tushirilgan tugma joylashgan. Ushbu tugmani bosing, kameraga ruxsat bering va qurilma kamerasi orqali mahsulot qadog'idagi Data Matrix-kodga yo'naltiring. Ilova kodni avtomatik tarzda aniqlaydi va mahsulot haqidagi ma'lumotlarni chiqaradi.

MARKIROVKA YO'QLIGI YOKI BOSHQA QOIDABUZARLIKlar USTIDAN QANDAY SHIKOYAT QILISH MUMKIN?

Agar markirovka kodi qandaydir sabablarga ko'ra o'qilmasa yoki olingen ma'lumotlarda xatoliklar mavjud bo'lsa — masalan, mahsulotning nomi noto'g'ri ko'rsatilsa yoki ishlab chiqaruvchi haqidagi ma'lumotlar bo'lmasa — ilovada mavjud «Qoidabuzarlik haqida xabar berish» tugmani bosish orqali bu holat haqida darhol xabar berishingiz mumkin.

Tegishli bo'limda mahsulot turkumini tanlashdan boshlang. Masalan, tamaki mahsulotlari. Keyin qoidabuzarlik aniqlangan joyni ko'rsating. Buning uchun viloyat va tuman ma'lumotlarni, shuningdek, savdo nuqtasining nomi, STIR (agar ma'lum bo'lsa) va aniq manzilini kriting. Barcha ma'lumotlar to'ldirilgach, ularni saqlash uchun «Qo'shish» tugmasini bosing.

Keyingi bosqichda qoidabuzarlik turini tanlang. Agar mahsulotda markirovka mavjud bo'lmasa, shu bandni belgilang. Agar holat nostonart bo'lsa, «Boshqa» variantini tanlashingiz mumkin. Shundan so'ng shikoyat yuborishning yakuniy bosqichiga o'tiladi.

«Qoidabuzarlik haqida ma'lumot» bo'limida muammoning mohiyatini batafsil tarzda tavsiflang — masalan, mahsulot qadoqlarida markirovka yo'qligi. Shuningdek, tasdiqlovchi materialarni ilova qiling: tovarning fotosuratlari (uchtagacha surat) va kassa cheki (uchtagacha).

Shikoyatni yuborishdan oldin barcha kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligini va yuklangan fotosuratlarning yetarlicha aniq ekanligini tekshirib chiqing.

Sizning murojaatingiz tegishli hokimiyat organlariga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Shuningdek, ushu shikoyatni «Soliq» ilovasi orqali to'g'ridan to'g'ri Davlat soliq qo'mitasiga ham yuborishingiz mumkin.

1-QADAM

Qoidabuzarlik haqida qachon xabar berish kerak?

Ushbu bosqichda siz qanday qoidabuzarliklarni qayd etish mumkinligini bilib olasiz.

2-QADAM

Qaysi mahsulotni tekshirishni xohlaysiz?

Quyidagi ro'yxatdan mahsulot turini tanlang. Bu bizga sizning shikoyatingizni tezroq ko'rib chiqishga yordam beradi.

3-QADAM

Qoidabuzarlikni qanday rasmiylashtirish mumkin?


Qoidabuzarlikka yo'l qo'yan do'kon haqida ma'lumotni to'ldiring.

4-QADAM

Yuborilganidan so'ng

Qoidabuzarlik haqida ma'lumot berilganidan keyin, dispetcherlarimiz do'konni tekshirib, zarur choralarни ko'radi.

**Новости
Узбекистана, чтобы
быть в курсе — Kursiv**



**O‘zbekistondagi
eng muhim yangiliklar —
Kursiv’da**